



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

Vahm-u usrattin omone toptuq,
Yangi jon, toza jahone toptuq.

Zahiriddin
Muhammad
BOBUR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ANDIJON VILOYATIDA YANGI BARPO ETILGAN BOBUR SHAHRIDA O'TKAZILGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar, muhtaram Andijon ahli!

Avvalo, siz, azizlar bilan yurtimizda ko'klam nafasi kezib yurgan mana shunday fayzli kunlarda diyor ko'rishib turganimdan g'oyat mamnunman. Barchangizga o'zimning yuksak hurmat va ehtiramimni bildiraman.

Hammangizga ma'lumki, inson qadri ulug'lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish – Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Bugun jonajon Vatanimizning barcha viloyatlari, qishloq va ovullarida ana shu ulug' va ezgu maqsad qanday amaliy natijalar berayotganini ko'rib, albatta, barchamiz cheksiz quvonamiz. Buning amaliy tasdiqini go'zal va betakror Andijon zaminida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Viloyatda sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, bog'u rog'lar barpo etish, ko'cha va mahallalarni obod qilish, aholi uchun munosib mehnat va yashash sharoitlari yaratish bo'yicha ko'plab tahsinga loyiq ishlar qilinmoqda.

Qani endi, imkoni bo'lsa-u, bu so'lim diyorga tez-



tez kelib, siz, azizlar bilan chin dildan miqrqib suhbatlashsam. Chunki sir emas, men doimo sizlar kabi mard va tanti, qalbi – Allohda, qo'li – ishda bo'lgan insonlar bilan uchrashib, muloqot qilib, o'zim uchun beqiyos ma'naviy kuch olaman, ruhlanaman.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, Yangi O'zbekiston nafasi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bormoqda, xalqimizni

baland-baland marralarga undamoqda.

Bu – islohotlarimizning biz kutgan, butun xalqimiz kutgan eng katta, eng muhim natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi.

Qadrli do'stlar!

Faxr bilan ayta olamizki, Andijon butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy, yirik shaharlaridan biri, vodiy gavharidir. Bu ko'hna zamindan ko'plab olim va mutafakkirlar, mashhur shoir va adiblar, davlat va jamoat arboblari,

madaniyat va san'at namoyandalari yetishib chiqqan.

Andijon – buyuk mutafakkir, bunyodkor shoh Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz tavallud topgan tabarruk diyori ekani barchamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Bugungi kunda Andijonda barcha soha va tarmoqlar jadal rivojlanmoqda. Ayni paytda bu yerda juda katta salohiyat mavjud. Ana shunday ulkan imkoniyatlarimizni ishga solish, hududni yanada taraqqiy ettirish maqsadida sizlar

bilan bundan ikki yil avval Yangi Andijon shahri va "Yangi O'zbekiston" bog'ini barpo etish haqida kelishib olgan edik.

O'tgan davr mobaynida ushbu ulkan loyihani amalga oshirish borasida katta ishlar bajarilganiga barchangiz guvohsiz. Nafaqat guvohsiz, ayni paytda ularda bevosita ishtirok etmoqdasiz. Qisqa vaqt ichida havas qilsa arzaydigan mana shu go'zal shaharcha bilan birga "Yangi O'zbekiston" bog'i ham qad ko'tardi.

Siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni ana shu buyuk mehnat g'alabasi bilan samimiy tabriklayman. Bunday fayzli, muazzam maskan barchamizga, avvalo, mehnatkash va olijanob Andijon ahliga muborak bo'lsin, buyursin!

Xalqimizning bunyodkorlik an'analari munosib davom ettirib kelayotgan, fidoyilik va tashabbuskorlik fazilatlarini amaliy ishlari bilan namoyon etayotgan Andijon ahliga, bu ishlarga hissa qo'shgan barcha insonlarga chin yurakdan tashakkur bildiraman.

Shu o'rinda ko'pdan buyon o'ylab yurgan bir tashabbusni sizlar bilan maslahat qilmoqchiman.

(Davomi 2-sahifada).

MUNOSABAT

Yurtimizda so'nggi yillarda milliy tarix va ma'naviyatga munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning nomini abadiylashtirish, ularning ma'naviy merosini xalqimiz ongiga, yoshlar qalbiga chuqur singdirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar bugun har bir yurtodoshimiz qalbidagi faxr va shukronalik tuyg'usini uyg'otmoqda.

Bu boradagi amaliy sa'y-harakatlar natijasida buyuk shaxsiyatlarining nomlari bilan atalgan yangi maskanlar, madaniyat markazlari, ilm-fan muassasalari barpo etilmoqda.

YANGI O'ZBEKISTON TARIXIDAGI YORQIN SAHIFA

Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday ulug' ajdodlarimizdan biri, jahon tarixida kamdan kam uchraydigan benazir, ulug' zotdir.

Uning ilmiy-adabiy merosi nafaqat siyosiy va tarixiy, balki ma'naviy-ma'rifiy qadriyat sifatida ham katta ahamiyatga ega. Yoshlik paytlaridan yurtda tinchlik va adolat o'rnatish uchun olib borgan kurashlari, bu yo'lda ko'rsatgan mardlik va jasorati fidoyilik va vatanparvarlik maktabidir.

Yurtboshimizning Andijonga tashrifi chog'ida Bobur Mirzo siymosiga samimiy ehtiromi nafaqat biz – boburshunoslar, balki butun xalqimizni ruhlantirdi. Bu tashrif doirasida Prezidentimizning Bobur nomli xalqaro jamoat fondi faoliyatiga bildirgan iliq munosabatlari esa bizgacha ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu e'tibor fond oldidagi vazifalarni yanada keng qamrovli va samarali amalga oshirishga ruhiy, ma'naviy kuch bag'ishlaydi.



Mazkur fond faoliyati yo'lga qo'yilganiga, mana, o'ttiz yildan oshibdi. Bu yillar mobaynida biz Bobur va boburiylar qoldirgan ilmiy, adabiy, ma'naviy merosni izlab topish, uni xalqimizga yetkazish, hech bo'lmaganda ularning nusxalarini vatanga qaytarish bo'yicha uzluksiz izlanishlar olib bordik va tadqiqotlarimiz izchil davom etmoqda.

Bu ishlarining o'ziga yarasha mashaqqati ham bor, albatta. Muhimi, chin ko'ngildan qilingan mehnat samarasi o'laroq quvonarli natijalarga erishdik.

(Davomi 2-sahifada).

ZAMONDOSH

UCH O'LCHAMLI OLAM OSHIG'I

Yangiyer shahrida Norbo'ta muallimni yaxshi tanishadi, kasbiga bo'lgan fidoyiligi, halolligi ortidan el oldida doim yuzi yorug'. O'qituvchilik ortidan to'rt farzandni boqib, munosib tarbiyalab, elga qo'shdi.

Qahramonimiz yosh matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent Otabek Hakimov muallim xonadonidagi uch og'a-inining kenjasi. U ham akalari singari maktabga chiqmasdanoq o'qish-yozishni o'rganib olgandi. Tengdoshlaridan ancha ilg'or Otabekka o'zidan bir sinf balandda o'qiyotgan opasining darsliklari qo'l keladi. Adabiyotga oshu ta matematikni gazetxonlarga uning o'z hikoyalari orqali tanishtiramiz...

HAYOTIMNING UCH YO'LI

Bolaligimda futbolchi bo'lishni orzu qilganman, ammo otam ruxsat bermagan. Futbol – birinchi muhabbatim! Keyin mukkamdan ketib ertadan kechgacha, ba'zan tong oqarguncha badiiy kitobdan bosh ko'tarmay o'qish, asar qahramonlari bilan birga yashash zavqi kutubxonachilikka havas uyg'otgan. Kutubxonachi bo'lmadim, biroq kitoblarni har doim men bilan birga. Demak, adabiyot – ikkinchi muhabbatim! Matematika esa qismatim... Undan qancha o'zimni olib qochmay, baribir taqdir meni u tomonga olib boraverdi. Maktab, litsey, universitet, keyin doktorantura va qadrdon maskanim Matematika instituti...

Futbol maydonida tanam yayrab, tomirimda qon yugursa, kutubxonada ruhim ozuqa olib, qalbm taskin topardi, raqamlar olami esa meni kelajigim sari yetaklayverardi.

Shu paytgacha bu uchallasidan hech birini boshqasidan kam ko'rmadim. Hech biridan ayro yashamadim.

(Davomi 4-sahifada).

MULOHAZA

"Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin", deyilmish otasozimizdan kelib chiqadigan mazmun – ilm o'rganishdan ko'ra tarbiya olish qiyin ekanligidir. Yaxshi tarbiya olgan insondan ulug' olim yetishib chiqadi.



OLIM BO'LISH OSONMI?

G'alati xabarga ko'zim tushdi: bir professor atigi bir yil davomida 56 (!) nafar falsafa bo'yicha fan doktori tayyorlabdi. Bir yilda 52 hafta borligini inobatga olsak, professorning kuch-g'ayratiga qoyil qolmay iloj yo'q. Har bir nomzodlik ishi kamida 100-120 varaqdan iborat bo'ladi desak,

Fidoyilik bundan ortiq bo'lmas!

o'qigan, tahlil qilgan, shu yuzadan fikr-mulohazalarini yozgan, keyin himoyasida qatnashib, so'zga ham chiqqan! Shu ishlardan bo'sh vaqtlari qaysidir oliygohda talabalarga saboq bergan, qandaydir ilmiy kengashlar va boshqa tadbirlarda qatnashgan ham.


Fidoyilik bundan ortiq bo'lmas!

(Davomi 5-sahifada).

BOQIY MEROS

HIDOYAT YO'LBOSHCHISI

Buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish maqsadida joriy yilning 14-mart kuni Prezidentimiz "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi.



Ushbu qaror moturidiylik ta'limotiga xos bag'rikenglik va mo'tadilik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kalom ilmiga oid ulkan ilmiy meros qoldirgan Abu Mansur Moturidiy o'z davridayoq zamondoshlari tomonidan "Imom al-huda" ("To'g'ri yo'lga yo'llovchi imom"), "Qudvatu ahl as-sunna" ("Ahl sunnaning andozasi"), "Qole abobil al-fitna val-bid'a" ("Fitna va bid'at to'dalarini ag'daruvchi"), "Imom al-mutakallim" ("Mutakallimlarning peshvosi"), "Rofe a'lom ash-shari'a" ("Shariat bayroqdori"), "Musahhih aqid al-muslimin" ("Musulmonlarning aqidalarini tuzatuvchi") kabi sharafli nomlarga sazovor bo'lgan.

Moturidiyning ilmida yuksak martabalarga ko'tarilishi, olimlar orasida qadr-qimmat topishida u shakllangan ilmiy muhitning o'rni katta. Xususan, IX-X asrlarda Movarounnahr va musulmon dunyosi mamlakatlarida yasha-

gan Abu Nasr Ahmad Iyoziy hamda Abu Bakr Juzjoniying singari yirik ulamolarda Imom Moturidiyning yetuk olim bo'lib shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

O'rni kelganda ta'kidlash joiz, olimning faoliyatiga beqiyos xizmati singgan ustozlar mavzusi, bizningcha, chuqur tadqiq qilinishi lozim. Negaki, bu borada o'rta asr manbalarining kamligi ma'lumotlar taqchilligini yuzaga keltiradi. Ayrim manbalarda Nusayr Balxiy bilan Muhammad Roziy olimning ustozlari sifatida zikr etilgan qaydalar mavjud. Lekin Abu Muin Nasafiy ularni samarqandlik olimlar qatoriga qo'shmaydi. Moturidiyshunos olim Ulrix Rudolf ta'kidicha, Imom Moturidiy bilan bog'liq biror asarda ularning nomi uchramaydi. Bu esa mazkur shaxsiyatlar biografiyasiga oid ma'lumotlarni yanada aniqlashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi.

(Davomi 6-sahifada).



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ANDIJON VILOYATIDA YANGI BARPO ETILGAN BOBUR SHAHRIDA O'TKAZILGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

O'zining betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz – Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiy-lashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga – Bobur shahri deb nom bersak, nima deysizlar?

Qo'llab-quvvatlaganingiz uchun rahmat. Ishonchim komil, bu tashabbus har tomonlama xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ladi.

Nega deganda, hazrati Bobur – jahon tarixida kamdan kam uchraydigan shunday benazir, ulug' zotki, uning sharafiga nafaqat ko'cha va maydonlar, bog'-u rog'lar, balki alohida shahar bunyod etsak, albatta arziydi.

Nega deganda, Bobur Mirzo – Temuriylar Rennansaning munosib davomchisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot, iste'dod homiysi bo'lgan buyuk shaxsdir.

Uning yoshlik paytlaridan yurtda tinchlik va adolat o'rnatish uchun olib borgan kurashlari, bu yo'lda ko'rsatgan mardlik va jasorati fidoyilik va vatanparvarlik maktabidir.

Hech shubhasiz, qomusiy bilim va tafakkur egasi bo'lgan bu mumtoz ajdodimizning birgina "Boburnoma" asari uchun ham uning sharafiga mana shunday go'zal shaharchani bunyod etsak, arziydi.

Chunki takror aytishga to'g'ri keladi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olamga mashhur ajdodlarimiz borligini, ular O'zbekiston farzandi ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak.

O'zligimizni anglab, shonli tariximizni yosh avlodimizga, bolalarimizga tushuntirish, ilm-ma'rifatni rivojlantirish, ulug' bobolarimizga munosib bo'lib yashasak, Yangi O'zbekistonni ham, Uchinchi Rennansini ham albatta quramiz!

Aziz do'stlar! Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz bor-yo'g'i 47 yil umr kechirdi. Shu qisqa vaqt davomida u inson aqli bovar etmaydigan qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan, qanday me'moriy obidalar, bog'-u rog'lar barpo etib, o'zidan o'chmas nom qoldirib ketgani ham barchamiz uchun yuksak o'rnak namunasidir.

Shu ma'noda, hazrati Boburning shon-u shuhrati va qadr-qimmatini joyiga qo'yish, uning bebaho merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish, butun dunyoga targ'ib etish hurmatli olim va adiblarimizning, hammamizning muhim burchimiz hisoblanadi.

ViLOYAT ziyolilari, bilimdon yoshlarimiz, butun Andijon ahli bu borada yanada faollik ko'rsatadilar, deb ishonaman.

Nega deganda, andijonliklar o'zining bu ulug' farzandi xotirasini o'sha og'ir, mustabid tuzum davrlarida ham qalbida, xotirasida e'zozlab-ardoqlab kelganini yaxshi bilamiz. Davlatimizning yaqin yordami bilan hurmatli oqsqolimiz Zokirjon aka Mashrabov kabi o'nlab ma'rifatparvar insonlar, Bobur xalqaro fondi va ilmiy ekspeditsiyasi qanday katta ishlarni amalga oshirib kelayotganini yuksak qadrlaymiz.

Bu borada bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur: Bobur Mirzoning bebaho merosi – bu bir ummon. Ummonning esa hech qachon tubiga yetib bo'lmaydi.

Shuning uchun mamlakatimizda, viloyatda boburshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlarni to'xtat qolmasligi, aksincha, yangi avlod, azm-u shijoatli yoshlarimiz tomonidan davom ettirilishi, yanada yuksak bosqichga ko'tarilishi lozim. Bu ishda men sizlarga har tomonlama yordam berishga doimo tayyorman.

Aziz do'stlar! Mamlakatimizda amalga oshirayotgan barcha o'zgarish va islohotlarimiz Bobur Mirzo kabi ulug'

ajdodlarimizning orzu va maqsadlari, hayotiy ideallari, ulug'vor ishlariga hamohang, desak, yangilashmagan bo'lamiz.

Bugun sizlar bilan birgalikda Bobur bobomiz tug'ilib o'sgan tabarruk zaminda ul zotning dilida qolgan armonlarini ro'yobga chiqarish yo'lida yana bir tarixiy voqeaning ishtirokchisi bo'lmoqdamiz, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Bobur shahrini barchamiz orzu qilayotgan eng go'zal, eng zamonaviy shaharga aylantirish bugundan boshlab real vazifa qilib kun tartibiga qo'yiladi. Bu shahardan haqiqiy boburiylar yetishib chiqishi uchun bobomiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashgan bog'cha va maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT parkdan iborat yirik ta'lim klasteri barpo etiladi. Oliygo'z tarkibida eng yuqori talablarga javob beradigan sport kompleksi ham quriladi.

Bir so'z bilan aytganda, barchamiz birlashib, Bobur shahrini milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etadigan ma'naviy maskanga, ta'lim va ilm-fan shahriga, yoshlarimiz uchun ilhom va ibrat, parvoz

maydoniga, nafaqat vodi, balki mamlakatimizning turizm va madaniyat markaziga, "yashil infratuzilma" asosida qurilgan zamonaviy "smart-siti", ya'ni aqlli shaharga aylantiramiz.

Bobur shahrining maydoni 4 ming gektar bo'ladi va bu yerda 500 ming aholi munosib yashashi va ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Bu shahar, xuddi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nomi qo'yilgan azim shahar kabi, shonli tariximiz va kelajagimiz o'rtasida ma'naviy ko'priki bo'ladi, yangi tariximizdan munosib o'rin oladi.

Mana shu bog' hududining eng baland nuqtasida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning yangi, muhtasham haykalini ham o'rnatamiz.

Bobur shahri milliy madaniyat va san'atimiz, o'zbekona mehmondo'stlik, bag'rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgu bo'lishi zarur.

Ushbu ezgu maqsadlarni amalga oshirish uchun katta dastur qabul qilamiz, 250 million dollarlik dastlabki kapitalga ega bo'lgan alohida jamg'arma tashkil qilinadi. Har yili bu

jamg'armaga qo'shimcha mablag' ajratiladi.

Bugungi tadbirda Bosh vazir o'rinbosarlari, mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari ham ishtirok etyapti. Ularga alohida topshiriq: ushbu megaloyiha bir oydan kechikmay boshlanishi shart.

Hurmatli Andijon ahli! Mana shu zamonaviy amfiteatr sahnasida, mana shu go'zal bog'da xalqimizning nodir san'ati doimo namoyish etilib, ulug' shoirimiz she'rlari yangrab tursa, ayni muddao bo'ladi.

Bu oqshom ushbu yangi madaniyat maskanida atqli san'atkorlar va iste'dodli yosh ijrochilar ishtirokida bo'lib o'tadigan konsert dasturi shu yo'lda ezgu an'anani boshlab beradi, desak, to'g'ri bo'ladi.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha madaniyat va san'at sohasi xodimlarini bugungi kasb bayrami bilan butun xalqimiz nomidan, o'z nomimdan xin qalbidan samimiy tabriklayman.

Barchamiz yaxshi bilamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qaysi yerida, qaysi o'lkasida bo'lmasin, bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi. Bugun buyuk ajdodimizning armonlari ushaldi, ul zot o'z yurtiga ruhan qaytib keldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Mana shunday ulug', tarixiy kun barchamizga muborak bo'lsin!

Sizlarga, sizlarning timsolingizda Andijon ahliga tinchlik-omonlik, mustahkam sog'liq, yangi yutuq va omadlar tilayman.

YANGI O'ZBEKISTON TARIXIDAGI YORQIN SAHIFA

Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, ilk bor Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi yaratildi. 50 dan ortiq kitob, besh jildidan iborat bibliografik maqolalar to'plami chop etildi. Bobur tanlangan asarlari olti jildlik "Bobur Kulliyoti"ga mujassamlashtirildi.

Shuningdek, "Bobur va jahon madaniyati", "Andijon shaharsozlik madaniyati tarixi" muzeylari tashkil etildi. "Xalqaro Boburshunoslik ilmiy elektron platformasi" ishga tushirildi. Bu platforma nafaqat yurtimiz, balki xorijiy olimlar uchun ham ma'naviy muloqot va hamkorlik maydoniga aylandi. Bugungi kunda boburiylar merosini keng targ'ib etish, tadqiqotlar o'tkazish va uning ilmiy asosini mustahkamlash yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilib, xususan, o'ttizga yaqin xorijiy bo'limlar ochildi.

Fond tomonidan tashkil etilgan xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar natijasida, o'z yurtimiz hududidan tashqarida dafn etilgan buyuk ajdodlarimiz qabrmagbaralarini izlab topish va obod qilish, bu orqali ziyorat turizmini rivojlantirish yuzasidan ham ishlar keng yo'lga qo'yilgan.

E'tirof etish joiz, Yurtboshimiz rahbarligida mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar – ayniqsa, aholi daromadini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik va kichik biznesni

rivojlantirish borasidagi qadamlar kundan kunga yangi bosqichga ko'tarilayotir. O'zgarishlar nafasini nafaqat poytaxtda, balki hududlarda ham sezmoqdamiz. Jumladan, Andijon shahridagi qurilish va bunyodkorlik ishlari doirasida Yangi Andijon shaharchasining barpo etilayotgani fikrimizning amaliy tasdiqidir.

Andijonga tashrif doirasida viloyat vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda Prezidentimiz tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berilishi haqidagi taklifi boburshunos inson sifatida meni behad quvontirdi. Andijonlik nuroniyalarimiz hamisha shahardagi biron bir hududga buyuk ajdodimiz nomi berilsa, degan orzuda yashashgan. Xalq orzusining ro'yobi bo'lgan ushbu tarixiy voqea o'zini Bobur avlodimani degan har bir vatandoshimizni faxrlantirdi, yangi marralar sari ilhomlantirdi.

Bugun jadal sur'atlarda barpo etilayotgan Bobur shahri tarixiy merosimizga bo'lgan e'tiborning yorqin ifodasidir. Yurtboshimiz ta'birini aytganda, ushbu go'sha "milliy madaniyat va san'atimiz, o'zbekona mehmondo'stlik, bag'rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgu bo'lishi zarur".

Zokirjon MASHRABOV,
Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodim

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MONOLOGU



Menkim, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umarshayx Mirzoning o'g'li, yetti iqlim hukmdori ulug' Temurbekning zurriyodi, Tangri taoloning inoyati bilan Andijon shahrida tavallud topdim.

Bu charxi falak boshimga qanday kunlarni solmasin, qaysi diyov va o'ikalarda umrguzaronlik qilish nasib etmasin,

Andijon latofati, Andijon muhabbati bir soniya xayolimni tark etmadi.

Andijon.. Andijon eli turkiydir. Shahr va bozorida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriida nash'u namo topibtur, bu til biladur. Shahar ahli savdogar va hunarmand xalqdur.

Elining orasida san'atkorlari ko'p. Bu yerdagi ishlar Tangri taoloning ko'magi bilan doimo saranjom bo'lar.

Ota mulkim Andijonni, butun Movarounnahr o'lkasini tinch-osoyishta, obod va ma'mur ko'rmoq, bu yerda odil siyosat yurgizmoq butun hayotimning a'moli erdi.

Taqdir ekan, bu orzu menga armon bo'lib qoldi.

Lekin tasalli shuki, siz avlodlarim, ahli O'zbekiston, baland himmatlig', azm-u shijoatlig' rahnamo tegrasida yaqqalam bo'lib, bizning orzularimizni ro'yobga chiqarmoqdasiz.

Buning uchun Yaratgan Parvardigorga har qancha shukrona aytmoq farzdur.

Bundoq dorilomon kunlarning qadriga yetmoq, bunday zafarlarni mustahkam etmoq sizlarning, shu jannat yurtda yashayotgan har bir sof niyatli insonning muqaddas burchidir.

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Ja'miyatigiz borini davlat tutungiz,
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kun g'animat tutungiz.

Siz avlodlarga yana bir o'g'itim:
Bori elga yaxshilig' qilig'ilki,

mundin yaxshi yo'q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi

falondin yaxshilig'!

O'zbekiston davlat drama teatri aktyori
Iltom BERDIYEV ijro etgan.

SHAHARGA BUYUK AJDOD NOMI BERILISHI MILLIONLAB INSONLARNING DILIDAGI ARMONLAR USHALISHIDIR

Panjob universiteti qoshidagi Bobur merosi markazi direktori Ruxsana Iftixor (Pokiston) "Dunyo" AA uchun intervyusida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi Andijon shahriga Bobur shahri deb nom berish tashabbusi haqidagi fikrlarini bildirdi:

– O'zbekiston Prezidentining Andijondagi nutqi va bildirgan taklifi Pokistonda katta aks sadoga sabab bo'ldi. Bu shunchaki shaharsozlik tashabbusi emas, balki Boburning buyuk shaxsi bilan tarixiy va madaniy aloqadorlikni his qilayotgan millionlab insonlar dilidagi armonlardir.

Men tarixchi sifatida bu voqeadan juda hayajonlandim. Pokiston uchun Bobur nafaqat buyuk sulola asoschisi, balki madaniy timsol, qalamkash va falsafiy fikr egasidir. Uning nomi adabiyotga bo'lgan nozik did, tabiatga muhabbat, she'riyat va me'morchilik bilan bog'liq. Binobarin,



Bobur nomi bilan atalgan shaharning barpo etilishi shunchaki xotira tadbiri emas, balki O'zbekiston va Janubiy Osiyo o'rtasidagi umumiy merosga hurmat asosidagi jonli muloqot ifodasidir.

O'zbekiston Prezidentining Andijon shahridagi amfiteatrni xalq amaliy san'ati

markaziga aylantirish to'g'risidagi qarori ham alohida e'tiborga loyiq. Bu xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy yaqinlashuvning muhim platformasiga aylanishi mumkinligiga ishonaman. Pokistonlik rassomlar ushbu noyob maydonda o'tkaziladigan festivallar va ijodiy loyihalarda ishtirok etishdan mamnun bo'ladilar deb o'ylayman.

O'zbekiston o'z nigohini faqat o'tmishga emas, balki kelajakka ham yo'naltirganini yana bir bor isbotladi. Bobur xotirasining tug'ilib o'sgan Andijonda ulug'lanishi tarixiy adolat, shu bilan birga, muloqotga da'vat sifatida baholash mumkin. Biz Pokistonda ushbu tashabbusni chin dildan yuksak baholaymiz hamda u mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvlarni kengaytirishga turkii bo'lishiga ishonchimimiz komil.

"Dunyo" AA,
Lahor

Uyg'oq millatgina yuksaladi

Kim bedor, kim uyg'oq, kurashchan, harakatchan bo'lsa, u albatta maqsadiga yetadi. Bu hayotiy haqiqatni Andijon va andijonliklar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ular doimo mavjud imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanib, zamonga mos harakatda, yurt va jamiyat manfaatlarini ko'zlab yangilikka intilgan holda yashashni odat qilgan.

Davlatimiz rahbarining 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatiga tashrifi ana shunday fidoyi xalqimiz, odamlarimizga shijoat, ruh va ilhom bag'ishladi. Yurtboshimiz viloyatdagi ishlar bilan atroflarga tanishib, odamlar bilan gaplashar ekan: "Bu zaminda Yangi O'zbekiston shukhi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib ulgurgan" deya viloyat ahlining mehnatsevarligi, tashabbuskorligi, islohotlarga daxldorligi va faol ishtirokini yuksak baholadilar.

Tashrif doirasidagi yana bir quvonari voqeelik – Yangi Andijondagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida tashkil etilgan xalq saylida ilgari surilgan tashabbus bo'ldi. Ulug' bobokalonimiz, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur nomini abadiylashtirish maqsadida, adirliklar bag'rida barpo etilayotgan yangi shaharga "Bobur shahri" deb nom berish taklifi

bildirildi. "Ishonchim komil, bu tashabbus har tomonlama xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ladi, – dedi Prezident Bobur shahrida o'tkazilgan tantanali marosimda. – Nega deganda, hazrati Bobur – jahon tarixida kamdan kam uchraydigan shunday benazir, ulug' zotki, uning sharafiga nafaqat ko'cha va maydonlar, bog'-u rog'lar, balki alohida shahar bunyod etsak, albatta, arziydi".

Bu – Bobur siymosiga bo'lgan yuksak ehtirom, xalqimizning tarixiy xotirasi va ma'naviy merosiga bo'lgan sadoqat ifodasidir. Shu bilan birga, bu taklif mustaqillik sharaflari, sharofatidir. Chunki qachonlardir ana shu adirliklar orqali Vatanni tashlab chiqib ketgan Bobur Mirzo, bugun – yurtiga ruhan qaytdi.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari viloyatda amalga oshirilgan islohotlar, yangilanishlar bilan yaqindan tanishar ekan, hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, obodonlashtirish va infratuzilmasi uchun misli ko'rilmagan miqdorda mablag' ajratilayotgani va "Bunaqasi hech qachon bo'lmagan"ni ta'kidlab o'tdi.

Bunday yuksak ishonch va qo'llab-quvvatlov zamirida ulkan maqsadlar mujassam. Yaratilayotgan bu imkoniyatlar esa andijonliklar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish, yangi bozorlarni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yana bir taklif, "Andijon brendi"ni yaratish – bu shunchaki mahsulot ishlab chiqarish yoki ularni eksportga yo'naltirish emas, balki andijonliklarning hayotga, mehnatga, ilmga, madaniyatga, ijtimoiy faollikka va ijodkorlikka bo'lgan o'ziga xos yondashuvini dunyoga namoyon etish g'oyasidir. Ishonamizki, bu brend bizning g'ayratli, shijoatli, dunyoqarashi keng xalqimiz, yurtdoshlarimiz bilan o'zining betakror qiyofasini yaratadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, agar hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlikda harakat qilsak, yutuqlarimiz yanada ko'payadi, zils zabt etolmaydigan marraning o'zi bo'lmaydi, Andijon yanada obod bo'ladi! Mirzo Bobur yozganidek: "G'affat uyqusidin uyg'on gar tilar bo'lsang murod, Kim, yetar maqsadga har kim bo'lsa ul bedorroq".

Darhaqiqat, bedorlik, ya'ni uyg'oqlik, mas'uliyatni his etish, faol harakat – har qanday yutuq, taraqqiyotning asosiy kalidir. Biz ana shu hikmatni hayot tarziga aylantirgan xalqimiz. Zotan, bedor insongina maqsadiga yetadi, uyg'oq millatgina yuksaladi.

Matluba YUSUPOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Andijon viloyat bo'limi mutaxassisi



SUHBAT

TABARRUK OYDINLAR DUOSI

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham millat taraqqiyosi, davlat barqarorligi, jamiyat ravnaqida ziyoli ijodkorlarning ta'siri beqiyos bo'lgan. Biz bu hodisani jadid bobolarimiz faoliyatida ro'y-rost ko'ramiz. Bugun ham ana shunday maqom tutgan ustoz adiblarimiz borki, ularning fikr-u zikrlari xalqimiz dunyoqarashining sayqallanishiga xizmat qiladi. Gazetxonlarimiz e'tiboriga havola etilayotgan mazkur suhbatda adabiyotimizning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, serqirra adib, filologiya fanlari doktori, professor Xurshid Do'stmuhammad o'zining uyg' oq fikrlari bilan o'rtoqlashgan.

– Avvalo, millat taqdiri uchun jonni tikkan, hatto o'limga ham tik qaragan jadidlar, ularning bugungi izdoshlari, zamonamiz oydinlari haqidagi o'y-laringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– Jadid bobolarning hayoti-faoliyati, ular yashagan davr hatto sovet zamonida ham uncha-muncha o'rganilgan. Lekin, mana, bugungi kunga kelib chinakam ma'noda chuqur, keng, batafsil va xolis o'rganish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Muhit vujudga kelmoqda. Bu muhit imkoniyatlaridan nechog'li unumli, samarali foydalanamiz – hamma gap shunda! Hali jadidlar davrini to'laligicha, bor murakkabligi, issiq-sovuqi bilan, bor shukhi va fojiasi bilan kaftimizga qo'ygandek inkihsif eta olganimizcha yo'q. Jadidlar davri tarixini mutaxassis sifatida o'rganuvchi qatlam anchagina zaif deb o'ylayman. Ushbu yo'nalishga ixtisoslashayotgan yoshlar safini mustahkamlash muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Hamza, Fitrat merosi birmuncha o'rganilgani quvonarli, albatta. Ammo har qanday ilmiy izlanishning tabiat-qonuniyati shundayki, o'rganilgani sayin masala tuga-maydi, balki ko'payadi, chuqurlashadi, murakkablashadi. Shunga mos ravishda tadqiqotchilarning salohiyati ham to'xtovsiz orta borishi talab etiladi. Mavridi kelganda aytay: Behbudiy merosiga bag'ishlangan salmoqli asarlar chop etildi (mualliflari – Naim Karimov, Sirojiddin Ahmad, Halim Said), Fitrat asarlarining 5 jildligi bor (Hamidulla Boltaboyev tayyorlagan), Abdulla Qodiriy publitsistikasi "Diyori baki" kitobida jamlandi.

"Jadid" gazetamizda shunga o'xshash ilmiy-ma'rifiy tadqiqotlar bahonasida ko'pdan ko'p salmoqli tahlillar, mulohazalar, xulosalar bayon etilishi mumkin. Savolning ikkinchi qismiga kelsak, 100–130 yil nari-berisidagi davr va shaxslarni to'g'ridan to'g'ri qiyoslash unchalik to'g'ri emas. Qarang, "Millat taqdiri uchun jonni tikkan"lik ulug' gap, lekin "hatto o'limga ham tik qaragan"lik... bizning zamonga bunday gaplar yarashmaydi. Boshqa o'xshash jihatlarga haqida esa istagancha so'z yuritish mumkin.

"Jadid" deganda o'zak ma'no – yangilikka tashnalik demakdir. Nazariy jihatdan olinsa, har qanday jamiyatda, xoh yuksak taraqqiy etgan, xoh rivojlanmagan jamiyatlarda ham jadidlik alomati bo'lmay iloji yo'q. Chunki taraqqiyot uzluksiz harakatda, odamzod tafakkuri istaydimi-yo'qmi, yangilikka intiladi. Mohiyatan shuning o'zi jadidlik.

Bir asr muqaddam yashab o'tgan jadidlarimizning o'ziga xosligi asosan bir necha yo'nalishda namoyon bo'lgan: ilmga, bilimga, savodga, boxabarlikka, faollikka, fidoyilikka va birlikka tashnalik! G'oyatda ajablanarli joyi shundaki, yillar, asrlar o'tib borsa hamki, muammolarimiz "ohori" to'kilmay saqlanib qolmoqda.

– Jadidlarni eng qiynagan narsa yoki muammo nima edi?

– Fikrimcha, jadidlar keng aholi omma-sining savodsizligidan qattiq qayg'uragan. Odamlarimizning dunyoda, jamiyatda kechayotgan voqealarga befarqligidan fig'oni ko'kka chiqqan. Bunday zabunlikning birlamchi sababi turmush qiyinchiliklariga borib taqalishini asosiy vaj sifatida ko'p gapiramiz. Buning oqibatida odamlar-

ning fikr darajasi ro'zg'or tashvishlaridan yuqori ko'tarilmagan, deymiz. Jadidlar esa ayni o'shanday ayanchli moddiy ahvoldan tushkunlikka tushish emas, aksincha, keng omma boshini qovushtiruvchi kuch-quvvat olmag'i darkorligini uqtirmoqqa uringan. Katta maqsadlar yo'lida birlashish, bir yoqadan bosh chiqarish va shu orqali hamjihatlikka erishmay turib, xalq xalq bo'lmashligini aytish yo'llarini izlagan.

Did-saviya tushunchasi bor. Oddiygina, soddagina, jo'ngina, muxtasargina so'z. Lekin uning zamiridagi ma'no-mazmun miqyosini tugal aytishni istasak, mavzu ko'lami milliy mentalitetga borib taqaladi. Kundalik turmushimizning har soniyasi, har odimida, har so'zimiz, maqsad-u niyatlarimiz, amalimizda namoyon bo'ladi bu tushuncha. Qarang, badiiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, diniy, tarixiy, ma'rifiy, axloqiy va hokazo-hokazo did-saviya tahlili orqali yakka bir shaxsga, oilaga, millatga... jamiyatga baho berish mumkin. Zamonga, insoniyatga ta'rif berish mumkin. Aytmoqchiman, jadid bobolarimiz sa'y-harakatlari zamirida, umumlashtirib aytganda, milliy did-saviyani yuksaltirish maqsadi yotgan.


Abdulla Qodiriy, "Istatistikasi bor bir millat oynasi bor bir qavm demakdir. Oynangiz qo'lingizda bo'lsa shubha yo'qki, diydori sharafingiz sayhonidagi barcha qing'ir-qiyshuqliklarni ko'rsiz... Istatistika degan narsa xalqimizning tushiga ham kirmagan", deb yozganida hali o'ttuzga chiqqan edi.

Ulug' adibimiz 100 yil muqaddam o'rtaga qo'ygan savolini bugun takrorlaylik: statistika hozirgi odamlarimizning tushiga kiriyaptimi? Xalqimiz hayotining har jabhasi jamoatchilik tomonidan qizg'in muhokamalarga mavzu bo'lyaptimi? Ulardan tegishli xulosalar chiqarilmoqdam?

Jadidlar davrini qadrlash, ularni o'zimizga ibrat o'rinda qabul qilish o'sha mash'um davr siymolari faoliyati, so'zlarini qadrlashdan boshlanmogi kerak-da!

Xulosa qilib aytganda, "jadid" degan maqomga munosiblikning birinchi belgisi bilimsevarlik, ilmparvarlik, rostgo'ylik, did yuksakligi, talabchanlik, fidoyilik va sadoqatlik. Dabdurdan topgan so'zlarim shular. Topmaganlarim qancha? Aytolmaganlarim qancha? Mana shu talablar har qanday zamon va makonda davrning ilg'or kishisi, birinchi navbatda, ziyolisi uchun ardoqli fozilat hisoblanib qolaveradi.

– Jadidlar davrini o'rganishga ishtiyok bildirgan yosh tadqiqotchilar ko'proq nimalarga e'tibor berishlarini istagan bo'lardingiz?



– Mavzu-muammo deganlari tog'tog' bo'lib uyulib, o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Jadidlik harakati qachon, qay tariqa boshlangan? Uning dastlabki belgilari nimalarda ko'ringan? Va qay tariqa rivoj topgan, ommalashgan, takomillashgan? Ya'ni, dunyoga kelishi (ibtido) – evolyutsiya (rivoj) – nihoyaga yetishi (intiho) qadam-baqadam, kunma-kun, oy-ma-oy, yilma-yil – to so'nggi "daqiqqa" qadar bo'lgan tarixiy yo'l xronologik tartibda va atroflicha o'rganilmog'i nihoyatda muhim deb o'ylayman. Biroq ishini aytildiganday ko'lam va miqyosda tashkil etish oson ko'chmaydi: bunday ishlar qayerda markazlashadi? Qay tariqa tartibga solinadi? Vazifalar taqsimlanadi? Umumlashtirish, xulosalash, yakunlash nima bo'ladi?

Yana. Jadidlar harakatining ibratli jihatlari ko'p, shu bilan bir vaqtda achchiq

saboqlari ham yo'q emas. Ya'ni? Ehtimol, eng og'ir savollardan biri – nima sababdan jadidlar harakatidek noyob ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-adabiy, ilmiy-axloqiy yurish jisman mag'lubiyatga uchradi? Tarixiy vaziyat yetarli darajada hisobga olinmadimi? Makkor va yovuz dushmanga qarshi uyushqoqlik yetishmadimi? Aniqlik va puxta kurash strate-giyasi yo'qmi? Salohiyatli yo'lbo'shchi topilmadimi?..

Ilmiy istiloh ila aytganda, tadqiqotlarimiz ham gorizontol, ham vertikal yo'nalishda rivojlanmogi, takomillashmogi durust.

– O'zbekiston davlat drama teatrida sizning "Yolg'iz" nomli qissangiz asosida "Jinlar bazmi" spektakli sahnalashtirildi. Abdulla Qodiriy hayotiga bag'ishlangan ushbu qissaning yozilish tarixi haqida gapirib bersangiz.

– Abdulla Qodiriyning publitsistik maqolalari jamlangan "Diyori baki" kitobini takror-takror o'qish asosida "Yolg'iz" qissasini yozish niyati tug'ilgan. Ma'lumki, 1926-yilning fevral oyida "Mushtum" jurnalida adibimizning "Yig'indi gaplar" maqolasi chiqqan va 8-mart kuni uni qamoqqa olishgan. Hamma jim, hamma o'zini chetga olgan, butun ayb-malomat Qodiriy boshiga yog'dirilgan. U – yolg'iz! Maqolada nimani yozgan deng? Bir so'z bilan aytganda, yolg'onni yolg'on degan, vassalom! Rostning rost, yolg'onning yolg'onligini ayta olish har qaysi zamon jurnalisti, publitsistining kasbiy burchi, sha'ni-missiyasi hisoblangan va hisoblanadi.

"Jinlar bazmi" spektaklini ajoyib rejissyor Olimjon Salimov sahnalashtirdi. Sahna asari juda chiroyli, ta'sirli chiqdi. Tomoshabinlarga manzur bo'ldi. Shu tariqa jadidlar hayotiga doir bir tarixiy voqea zamonodoshlarimiz orasida ommalashdi.

– Ustoz, bir suhbatigizda jamiyatga ma'naviy hokimlar kerak, lekin ular norasmiy bo'lmog'i zarur, degansiz. Rasmiy va siz nazarda tutgan ma'naviy hokimlarga doir qarashlaringizni kengroq tushuntirib bersangiz.

– Nazarimda, mustaqillik yillarida vujudga kelgan, shakllangan va dolzarbligini zarracha yo'qotmagan masalalardan biri – hokimlik. Xo'sh, hokim kim? Qanday shaxs hokimlik martabasiga loyiq, munosib ko'riladi?

Rasman olganda, hokim o'z hududining (tuman, shahar, viloyatning) birinchi shaxsi. Mas'ul. Prezidentning ishonchli vakili. Xalqona tilda aytilsa, o'z hududining boshlig'i, otasi. Bunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lish har qanday inson uchun misli yo'q sharaf, albatta.



sifatidagi boshqaruv ko'nikmasi, malakasi ilmiy asosda ishlab chiqilmagan. Tartiblashtirilmagan.

Shveysariya safarida sayr-boshimiz (gid), o'rta yoshdagi yigit bilan yaqindan tanishdik. U asli o'sha biz sayr qilib yurgan shaharchaning meri ekanini eshitib, hayron qoldik. Qanaqasiga?! Bizning tilimiz bilan aytganda, shahar hokimi sayrboshilikka vaqt topishi mumkinmi?

– Asli geografiya mutaxassisiman, – dedi u, – haftasiga bir kun mehmonlarga xizmat ko'rsataman, bir kun kollejdagi jug'rofiya fanidan dars beraman, uch kun hokimlik vazifamni ado etaman, ikki kun oilam davrasida hordiq chiqaraman.

– Hokimlik vazifalarini ado etishga uch kun kifoya qiladimi? – deb so'radik.

– Hokimlikda barcha vazifalar konkret tartib asosida xodimlar orasida taqsimlangan. Men xodimlardan hisobot olaman, xolos. Kamdan kam hollarda fuqarolar muammosini hal etish menga qadar yetib keladi.

Demak, vazifa-mehnat taqsimoti yo'lga qo'yilgan. Har kim o'z vazifasini ado etadi.

Hozirgi globallashuv zamonasining eng murakkab muammolaridan biri – ommaviy muloqot ekanligidan kelib chiqilsa, har qanday rahbar shaxs, jumladan hokim, birinchi navbatda odamlar bilan muloqot o'rnatish madaniyatini egallamog'i zarur. Qattiq bosim ostidagi odam hamisha

vazir maqomidagi ayrim rahbarlarning ma'naviy dunyoqarashini qo'ya turaylik, oddiy axloqiy tushunchasi qanchalar haminqadar ekanligi quloqqa chalinib qolmoqda. Suhbatini qo'ya turaylik, ikki og'iz intervyusida uning ma'naviy qiyofasi fosh bo'ladi-qo'yadi. Fikrimcha, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bu singari voqea-hodisalarga o'z bahosini berib borsin. Yevropada yarim soat to'p tepgan futbolchiga baho qo'yiladi, shu orqali uning darajasi belgilanadi, hokimning ma'naviyati ortida esa minglab, millionlab vatandoshlarimiz turmushi, taqdiri, kelajagi bo'y cho'zib turibdi.

Yana. "Jadid" gazetasi mamlakatimizda tuman, shahar va viloyatga hokimlik qilganlarning ro'yxati e'lon qilinsa, kim qancha vaqt bu lavozimni egallab turgani ko'rsatilsa. Keng omma, mutaxassislar, tadqiqotchilar – jamoatchilik o'z mulohazasini bildirsalar. Munozaraga Behbudiy, Qodiriy, Munavvar qori "qo'shilsalar". Ana sizga statistika, mana bizga statistika!

– Sizni zahmatkash adib, uyg' oq fikrli jurnalist deb ta'riflashadi. Xo'sh, Xurshid Do'stmuhammad hayotda, oilada qanday inson? Orzu-havas, armonlar degandek...

– "Yaxshi odammi" desam kulmay-sizmi?.. Yangi yozayotgan romanimda qahramon shunga o'xshash savol qo'yadi: "Har kim o'zini yaxshi odammi, deb o'ylaydimi?" Og'zini to'ldirib, xotirjam, qo'rqmasdan, ikkilanmasdan ayta oladimi shu lutfni? Birovga xiyonat qilmadim, o'zganing haqini yemadim, yomonlik sog'inmadim, halol ishladim, halol topdim deya oladimi? Deylik, oddiy fuqaro korrupsiyavozlik qilmaydi, qilolmaydi ham, binobarin, har bir dasti daroz martaba xo'jasi "Korrupsiya changaliga tushib qolmadimmi?" deb o'zidan so'ray oladimi?

Bu – g'urur, nafsoniyat, oriyat, burch masalasi! Shunday ish tuta oladigan, shuni qo'rqmasdan ayta oladigan odam bormi? Ko'pmi? Qancha?

Aslida qadim ta'limotlarimizda har bir banda har kech boshini yostiqqa qo'yib, ko'zi uyquga ketmasdan burun o'zini savolga tuta bilmog'i nihoyatda foydali sanalgan. Insonning insoniyligi ana shu savollarni bera olish va javobi bilan belgilanadi. Jinsidan, yoshidan, mavqeyidan, moddiy-ma'naviy imkoniyatidan qat'i nazar, aytilgan savol oldida taroqning uchidek teng. "So'roq" deb nomlangan qissamga "So'roqqa tutilmay turib o'zlarini o'zlarining so'roq qilganlar", degan o'lmas hadisni epigraf qilib olgandim.

Armon haqida so'rayapsiz, inson borki, qavat-qavat armonlar qurshovida yashaydi, umr kechiradi – boshqa iloji yo'q.

Qatag'on va sovet qirg'ini bo'lmaganida, Behbudiy 80–90 yil yashasa, Munavvar qori yuzga chiqsa, Abdulla Qodiriy, Fitrat 120 yil umr ko'rsaydi, deb o'ylab ketaman ma'naviyat. Tabarruk oydinlarimiz bugungi ma'rifatevarlarimiz, ziyolilarimiz tutgan yo'lni ma'qul ko'rgan, "Baraka topinglar!" deya duoga qo'l ochgan bo'lur edilar.

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA



22-APREL - O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI OYDIN HOJIYEVA TUG'ILGAN KUN

“FERUZA TOSH BO'LSAM DARYOLARINGDA...”

Birovning shaxsiyati, ijodi haqida bir yaxshi gap aytilsa, darrov xayolimga “Odam bolasadagi kimlargadir manzur bo'ladigan fazilatlar osmondan tushmaydi. Avvalo, oilasi, otanasining tarbiyasidan oladi. Qolaversa, o'qigan, ishlagan muhitidan, ustozlik qilgan insonlardan, vaqtida to'g'ri yo'lni ko'rsatgan do'stlaridan ibrat, namuna o'tadi”, degan fikr keladi.

Shu o'y barobarida rahmatli otam, onam, maktabda, institutda, so'ng ish joylarimda yo'lchiroq bo'lgan Matyoqub domla Qo'shjonov, Zulfiyaxonim, Oydin, Halima opamlar, qator do'st-u dugonalirimning xotiramda muhrlangan suvratlari ko'z oldimdan o'ta boshlaydi.

Bugungi so'z esa o'zbekning bug'doy so'zli, issiq yuzli ustoz shoiri Oydin Hojiyeva haqida. Opani qachon eslasam, she'r o'qiyotgan lahzarlari yodimga tushaveradi. Suhbatimga ijod kayfiyatini olib kirmoqchi bo'lsalar:

– Keling, she'r o'qishaylik, – deb qolardilar. Yuz-ko'zlari boshqacha bo'lib ketardi. Ilohiy bir nur inarimdiyey...

Shohsupa gardiga rayhon ekayin,
Ketar yo'lingizga suvlar sepayin,
Ko'klam yomg'iriday so'zlari

mayin,

Sadarayhon Sizni eslatdur...

Sevimli opalari Rajabbibiga atalgan shu she'rni qachon o'qisalar:

– Opam bilan pochcham bolaligimda, o'qishga kirgan paytlarimda, keyin yana og'ir-yengil kunlarimda ham tog'day suyanchiq bo'lishgan, yaxshiliklarini hech qachon unutmayman, – deb qo'yardilar.

Yoki Zulfiyaxonim haqidagi:
Ko'ksi, ko'ngli to'la ezgulik, ziyo,
Qayda gullar endi ul mehriyoyo,
Dunyoga bir kelib-ketdi Zulfiya,
Bahorday qaytmaydi,

degim keladi...

– degan she'rini o'qisalar, bemor bo'lganlarida ustozning onaday boshida turib berganlaridan gapirar:

– Shifokorimga “Bu mening shoir qizim, albatta, sog'aytirib berasizlar”, debdilar-a, – deya minnatdor bo'lar-dilar.

Ha, Oydin opam birovdan ko'rgan yaxshiliklarini unutmaydigan, o'zlari ham imkoni boricha boshqalarga yaxshilik qiladigan go'zal qalbli inson edi.

1996-yilda turmush o'rtog'im qattiq betob bo'lib, jiddiy operatsiyani boshdan kechirdi. Yemirila boshlagan suyaklariga o'zlarining son suyaklaridan olib ulashdi. Shifokorlar menga:

– Siz to'y suyak suyukka qo'shibil bitib ketmaguncha boshida o'tirishingiz kerak. Avval o'n besh daqiqadan, so'ng yarim soatdan nihoyatda avaylab yonboshidan bu yonboshiga ag'darib turishingiz kerak. Bo'lmasa yotoq yura tushib ketishi mumkin, – deyishdi. Katta bolalarimizning ishlari gurillab turgan payt, bir soniya bekor vaqtlari yo'q, kichiklari hali kichik. Men uch oy Miraziz akaning boshida o'tirishimga to'g'ri kelgan. Shifoxonaga borishdan avval Oydin opamlarning oldiga kirganman:

– O'z hisobimdan ta'til berasizmi? – deya ahvolni tushuntirganman. Opa birpas o'ylanib turganlar-da:

– Miraziz aka bu ahvolda bo'lsalar, siz ham o'tirib qolsangiz, tirikchiliklaringiz nima bo'ladi? Bolalarimgizning ham o'z oilasi bor, tag'in dadasining do'xtir bilan bog'liq hamma xarajatlari bolalarining zimmasida, deypsiz. Keldi-ketdili oila bo'lsangiz, yaxshisi, bunday qilamiz, – deya fikrini aytdi. Shu bilan men uch oy shifoxonada bemor boshida bo'ldim. Bosh muharririmiz tahrirga ehtiyoji bor materiallarni har yangi son boshlanishi bilan hamkasb qizlardan berib yuborardi. Tahrir tugagandan so'ng qo'ng'iroq qilardim, kelib materiallarni olib ketishardi. Maoshimni ham oymayo qo'limga yuborib turgan edilar. Biror marta “Qizlarning ham o'ziga yarasha ishi bor, o'zingiz kelib olib keting”, demagan...

Yaxshi kuningda yoningda turganlar esingda turmasligi mumkin, ammo yiqinchilikda madadkor bo'lganlar hech qachon xotirangdan chiqmaydi. Men ustoz shoiramizning menga qilgan shu yaxshiliklarini hamisha haqlariga duolar bilan yodga olaman.

“Saodat” jurnaliga boshchilik qilganlarning Zulfiyaxonimdan boshlangan go'zal bir an'anasi bor: yozganlarida “yilt” etgan iste'dod uchquni borki, yuzaga chiqarishni, katta maydonlarga yo'llashni o'zlarining burchi deb bilishadi. Oydin opam ham bu burchga sodiq bo'ldi.

Har bir ijodkorning ichida “men”i bo'ladi. Uni yengib, boshqa bir iste'dodlini qo'llab-quvvatlash uchun odamning qalbi toza, hasaddan xoli bo'lishi kerak. Ustozda shu fazilat

yaqqol ko'rinardi. Bu haqda faqat eshitibgina qolmay, bevosita guvohi bo'lganlarim bisyor.

Surxondaryolik bir ijodkor qizning she'rlari matbuotda ko'rinsa boshladi. Bir gal pochta orqali o'sha qizdan ustozga maktub va turkum she'rlar keldi.

– Yaxshigina qalami bor ekan, xatini o'qib yuragim ezilib ketdi. Onasi bilan yasharkan. “She'rlarim respublika matbuotida chop etilsa, onamning cho'kkan ko'ngli ko'tarilardi. Odamlar orasida qadri bo'lardi”, deb yozibdi. Keling, shu qizning she'rlarini mana shu songa qo'yib yuboraylik, – dedilar.

Surxondaryoga xizmat safari bilan borganimizda opaning iltimosi bilan o'sha shoir qiz – Zilola Yaxshiyeva o'qiyotgan kolleja uchrashuv qildi. Zilolaning turkumi chop etilgan jurnalni tarqatdik. Oydin opa qizning o'zini minbarga taklif qilib, she'r o'qitdi. Toshkentga qaytganimizdan so'ng ham Surxondaryodan tayyorlagan materiallarimizga:

– Qutlijon, umumiy sarlavhaga Zilolaning biror satrini chiqarsak. Zora, materiallarni viloyat rahbarlari ko'rayotganda bu satr diqqatini tortib, shu yarimko'ngil qizni ko'llab yuborishsa, – dedi va sarlavhaga havaskor singlimizning “Quyosh yo'lagidan chopib boryapman” degan satrini chiqardik. Keyinchalik Zilolaning kitobi chop etildi. Yosh ijodkorlarning Zomin seminarida ishtirok etdi. Oydin opam bu qizning har bir qadamidan xabardor bo'lib, qo'llab turdi.

– Otam dunyodan erta o'tgan, bolaligim oson kechmagan, – derdi ustoz.

Ba'zilar hayot siylab yuborsa, izda qolgan kunlarini unutadi. Oydin opam unutmagan uchun bo'lsa kerak, hamisha madadga muhtoj insonlarni qo'llaridan kelgan-gancha yuqardilar. Hukumat bir paytlar adabiyot oldidagi ko'p yillik xizmatlarini e'tiborga olib, taniqli adabiyotshunos va tarjimon Ibrohim G'afurov bilan Oydin opamga Parkent bozori yonidagi ko'pqavatli uylardan bir xonadon berdi. Pastki qavatda oddiygina oila – uzoq yillar “Sharq” matbaa nashriyotida ishchi bo'lib ishlagan ayol turmush o'rtog'i va kollejni bitirgan qizi bilan yashardi. Oydin opam shu oilaning

yashash sharoitini bilib, qizi orqali yordam bergisi keldi va ish tajribasi mutlaqo yo'q, o'zi ham xiyalagina g'o'r qizni “Saodat” jurnaliga tortdi. 2000-yillarning boshida matn teruvchi bo'lib ish boshlagan shu qizga opa xuddi tug'gan onaday mehribonlik qildi. Ko'pchilik ichida o'zini qanday tutishni o'rgatdi. Kiyinish, kattalar bilan muomala madaniyati, munosabat o'rnatish masalalarigacha saboq berdi. Vaqti kelib oila qurganida matn moddiy madadi, maslahatlarini darig' tutmad. Qiz “Saodat”da tup qo'yib, palak yozdi. Keyingi yillarda ham mehnatkashligi bilan rahbarlarning e'tiboriga tushgan uchun vaqt bilan sahifalovchi, so'ng dizayner darajasiga yetdi. Bir paytlar faqat dugonalari-yu qo'ni-qo'shnisigina taniyidigan qizni bugun jurnal bilan mulqotda bo'lgan barcha mualliflar yaxshi taniydi. Ilk qadamlari Oydin opamning qalbidan boshlangan va qiz bugun hammamizning har daqiqada ishimiz tushib turadigan texnika ustasi, xotin-qizlarga kundalik hayotda kerak bo'ladigan manzillarni besh qo'lday biladigan, kezi kelganda biz “Xosijon” deya erkalatadigan – Xosiyatxon Hakimova bo'ldi.

Ustozning tarjimai hollariga nur berib turadigan bunday voqealar juda ko'p. Bugun adabiyotimizda alohida bir mavqega ega bo'lgan Faxriddin Nizomov, Xosiyat Rustamova, Guljamol Asqarova kabi shoirning ham taqdir yo'llari qay bir nuqtalarda ustozning yaxshiliklari bilan tutashgan. Bir haqiqat borki, shoir-yozuvchining yozganlari o'ziga o'xshaydi. Zarra kam ham, zarra ziyod ham bo'lmaydi. O'zbekiston xalq shoiri, adabiyotimizga “Shabnam”, “Tamal toshi”, “Tarovat”, “Navo”, “Shom shu'lalari” kabi qator asarlar qoldirgan Oydinxonim Hojiyevaning ham she'rlari o'ziga o'xshaydi – ulardan yaxshilik nafasi ufarib turadi:

Hazorispan bo'lsam sahrolaringda,
Feruza tosh bo'lsam daryolaringda,
Hayit oyi bo'lsam samolaringda,
Mehru vafo ko'rar dunyolaringda,
Seni yomon ko'zdan asramoq uchun...

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



OYDIN HOJIYEVA

ISTIQLOL SO'ZIN AYTSAM

Istiqlol so'zin aytsam,
Ko'ksimda chinor o'sar.
Laylaklar uya qurgan
Buxoriy minor o'sar.
Nabiram lahjasida
Tog'dayin viqor o'sar.
G'unchalar nafasidan
Jannatiy ifor esar
Qatrasini dur yomg'irlar
Shivalab, bahor esar.
Ozoda ruh Tohirilar
Savlatidan sor o'sar.
Chaqmoq urgan tutlarning
Bag'rida dutor o'sar.
Burgutfe'l yigitlarning
Ko'kayida or o'sar.
Beshikdagi bek bolam
Haqqa havodur o'sar.
Malikcho'l – qutlug' dalam
Isiriq-tumor o'sar.
Yurtim yuksalib qirq gaz,
Elim erkiyor o'sar.
Ruhlar – uyg'oq, sha'n – uyg'oq,
Tilimda alyor o'sar.
Istiqlol so'zin aytsam,
Ko'nglimiz ming bor o'sar.

Majnunatlar shirin uyquda,
Ertaklarin tush ko'rar bu choq.
Chiroqlarning soyasi suvda –

Yonayotgan sham kabi porloq.
Oyna kabi yarqiraydi soy,
Mavjlarida sho'ng'ir shabada.
Kecha sirlil, mahobatga boy,
Bir haririk bordir havoda.
Nozanin oy chiqar jilmayib,
Xayollarga tashlaydi qarmoq.
Xayolni o'z erkiga qo'yib,
Kerak jim-jim aylanib yurmoq.
Tilaklarning chashmasi qaynar,
Va'dalar ham muqaddas bu kech.
Hilpiragan havosi yayrar,
Salqin, sarin, xushnafas bu kech!
Osmon daraxt – yerga egilgan,
Mevalari taram-taram nur.
Qo'l uzatsang, rosa yetilgan –
Yulduzlari duv-duv to'kiur!

Qay kun edi... Sizni sog'indim.
Derazamni ochdim quyoshga.
Tog'dan tushib keldi kunduzim
Bir savat nur ko'tarib boshga.
Ko'z yumgancha turaverdim lol,
Asta-asta isidi jonim.
Yuzlarimga urildi shamol
Va kengayib ketdi jahonim.
Bog' ariqdan oqqan gul mengiz
Qalqib chiqdim cheksiz dunyoga.
Ko'rdim, xayol qirlarida siz
Ketardingiz poyi piyoda...



Boshlanishi 1-sahifada.

MATEMATIKA VA MEN...

Yaratgan taqdirimni matematikaga bog'lagan ekan. Maktabni bitirayotib litseyga aniq fanlar emas, xorijiy til yo'nalishiga hujjat topshirganman. Lekin taqdirning o'yinini qarangi, o'sha yili hammani umumiy bitta guruhga qabul qilishdi – Yangi yildan keyin iqtidoriga qarab saralash sharti bilan. Ustozlarim meni aniq fanlar yo'nalishiga tortishib, saralash vaqti kelganda fizika-matematika sinfiga o'tkazmoqchi bo'lishdi, ammo o'zim iqtisod yo'nalishini tanladim. Shunday qilib, qarshiliklarga qarshi kurashish

bora-bora matematikaga bo'lgan muhabbatim yanada kuchliroq alanga olishiga sabab bo'ldi. Endi esa hech afsuslanmayman. Matematikani chuqurroq o'rganganim qolgan barcha bilimlarim uchun bir poydevor bo'ldi.

Otam matematik bo'lishimni, to'g'rirog'i, o'qituvchilik kasbini tanlashimni unchalik xohlamasdi. Chunki farzandlari o'zi kabi qiynalishini istamagan. Hujjatlarimni qo'limga olgach, hech kimga aytmasdan O'zbekiston Milliy universitetining mexanika-matematika fakulteti matematika yo'nalishiga topshirdim. O'qishga eng yuqori ball bilan birinchi o'rinda kirdim.

2012-yili aspiranturaga o'qishga qabul qilindim va ustozim xalqaro miqyosda tan olingan olim O'kir Roziqov rahbarligida – “Matematik analiz” ixtisosligi bo'yicha fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyamni muvaffaqiyatli himoya qildim. Shu yilning yozida esa “Cheksiz o'lchamli va noarximed dinamik sistemalarning Gibbs o'lchovlari nazariyasiga tatbiqlari” mavzusidagi doktril ishimi ham yoqladim. Noarximed analiz matematikada ancha yoshroq yo'nalishlardan hisoblanadi. Biz odatda o'zimiz o'rganib qolgan Arximedcha tahlil yoki ikki o'lchamli fikrlashga tayanamiz. Ammo hayotdagi voqea va jarayonlarni tushunish uchun bu yetarli emas. Ularga uch o'lchamli, ya'ni keng qamrovli, chuqur va ko'p qirrali yondashuv orqali baho berishimiz kerak bo'ladi. Arximedcha tahlil makroolamda, ya'ni biz ko'z bilan ko'rib turgan hodisalarni tadqiq qilsa, noarximed tahlili mikroolamda ro'y berayotgan jarayonlarni o'rganadi.

Bu orada ikki marta Malayziyaga ilmiy safar bilan borib keldim. U yerda hamyurtim, uzoq yillardan buyon o'sha yerda faoliyat olib borayotgan ustozlarimizdan biri taniqli olim Farrux Muhammedov bilan birga ishladim. 2017-yilda Birlashgan Arab Amirliklari universitetida tadqiqotchi assistent lavozimiga hujjat topshirib, suhbatlardan o'tgach, u yoqqa ketdim. Xorijda ish jarayonida ilmiy faoliyatim ancha yaxshi rivojlandi.

Matematika ham bitta til. Shunday tilki, Galiley ta'kidlagandek, tabiat kitobini yoza-digan til. Ya'ni borliqdagi haqiqatlarini go'yoki formulalar orqali matematik tilda yozib berishdir. Faqat bu tilning boshqa tillardan imkoniyati ancha keng. Ana shunday imkoniyatlardan foydalanish uchun esa matematik olimning tasavvur dunyosi juda boy bo'lishi zarur.

ADABIYOT VA MEN...

Dostoyevskiyga muhtalo bo'lganimda 15-16 yoshli o'smir edim. “Telba”ni boshladim-u o'zim ham “telba” bo'ldim. 600–700 sahifalik kitobni bir kunda o'qib bo'lib, necha kun shuning ta'siridan chiqolmay yurdim. Yillar o'tib o'ttiz yoshimda qaytadan bo'lib-bo'lib o'qiganimda yana o'sha o'n besh yil burungi xotiralar qurshovida qoldim. Bilasizmi, o'zi Dostoyevskiyning o'qiganda odam butunlay real olamdan uzilib, boshqa bir dunyoga tushib qolgandek bo'ladi. Har bir qahramonida o'zingizni ko'rasiz, u bilan birga iztirob chekasiz, u bilan birga kurashasiz, u bilan birga bariga qo'l siltaysiz. Masalan, “Qimorboz”ini o'qiganimdayam Aleksey

Ivanovichdagi ikkilanishlar menda ham bo'lishini sezardim. “Men uchun nima muhim? Futbolni, matematikami, adabiyotmi?” deya savol berardim o'zimga. Xuddi agar futbolni desam, matematika qolib ketayotgandek, ilmiy ishim bilan shug'ullansam, mutolaaga kechikayotganday, bular biri biridan meni qizg'anayotgandek tuyulavergan. Drayzer bilan Dostoyevskiyning bir xil ko'raman. “Jinoyat va jazo” hamda “Amerika fojiasi”ni ikki millatga mansub bir kishi yozgandek go'yo. O'tkir Hoshimovning, Tohir Malikning asarlarini qayta-qayta o'qiyman va ularni ma'naviy, ruhoniy ustozlarim deb hisoblayman. Hozir oldingidek bir kunda bitta asarni tugata olmasam-da, 100–200 bet o'qishga harakat qilaman. Yaqinda Talxa Ugurluening “Abdulhamidxon. Yashirin tarix haqiqatlari” kitobini o'qib tugatdim.

Har qanday holatimda meni ruhlantiradigan, doim yordamga tayyor do'stim, muhabbatim bu adabiyotdir. Kayfiyatim tushkun bo'lsa, Aziz Nesinni qo'limga olaman. Yumorda Nesinga teng keladigan yo'q, menimcha. Hammasi hayotiy, qahramonlarining xatti-harakati o'ta samimiy. Kayfiyatsiz holda o'qishni boshladimmi, qah-qah otib kulib yuboraman. Yoki nimadandir qattiq suyunib ketsam, Dostoyevskiy o'qib, birpasda o'zimga kelib qolaman. Dostoyevskiy shunaqa o'rningizni ko'rsatib qo'yadigan yozuvchi.

FUTBOL VA MEN...

Futbol o'ynamagan paytimni eslolmayman, hatto amirliklarda ishlagan vaqtimda avvaliga futbolsiz qiynalib yurganman. Keyin

so'rab-surishtirsam, ilmiy xodimlar orasida chempionatlar bo'lib turarkan. Men ham jamoaga qo'shibil chempionatda qatnashdim va biz o'shanda g'olib bo'lgandik. Institutda ham futbol jamoamiz bor, har chorshanba kuni to'p tepib turamiz. O'sha kuni futbol vaqti bo'ldimi, hamma narsani yig'ishtirib maydonga oshiqamiz, men hujumda o'ynayman. Matematika institutiga kirishimda oldimga ikkita maqsad qo'yanman: ilmiy darajaga olish va futbol komandasida o'ynab chempion bo'lish. O'tgan yillar davomida Fanlar Akademiyasi chempionatida jamoamiz finalga chiqib, bir necha bor g'olib bo'ldik. Qolaversa, ikkinchi maqsad – doktorlik ishimmiam muvaffaqiyatli himoya qildim.

SO'NGSO'Z

Otam ham o'z vaqtida aspiranturaga o'qigan, ammo sharoit taqozosi bilan ilmdan ketib, maktabda iqtisoddan dars bera boshlagan. Ilm yo'li – otamning armoni. Lekin hech birimizni o'zi yetolmagan cho'qqigacha chiqishga undamagan. Bu yo'l oson bo'lmasligini bilgan holda bizni ayagan, shekilli. Bugungi erishgan yutuqlarim otamning qattiqqo'lligi va biz uchun yaratib bergan muhiti ortidan deb bilaman. Chunki har bir yutuqqa erishishda qat'iy intizom, tanlagan sohaga bo'lgan muhabbat bo'lmas ekan, har qanday iste'dod ham so'nib qolishi, yuzaga chiqmasligi ehtimoli katta. Ba'zan otamning o'sha armonini ushaltira oldimmi o'zi, deb o'yab qolaman.

Shahnoza ROFIYEVA yozib oldi.



JARAYON



Paxtachi tumanidagi 1-maktabda yil-o'n ikki oy bahor, desak mubolag'a emas. Bunda fasllar almashmaydi, yam-yashil daraxtlar-u kamalakrang gullar ayozda ham ko'rgan ko'zga huzur, ko'ngilga taft-harorat beradi. Xuddi botanika bog'ini oralab yurganday bo'ladi kishi. Boisi oddiy: hamma gap ustozlar jamoasining "Har bitiruvchi uchun bir daraxt" loyihasida. Ushbu ta'lim dargohini tugatib, katta yo'lga qadam qo'yayotgan navnihol yoshlar yaxshi niyat bilan bir tupdan archa ko'chatini ekadi. Muassasaning o'ziga xosligi esa faqat bundagina emas...

Maktabimizda uch sotix yerda issiqxonalar tashkil qilib, limon ekkanmiz. O'ndan ortiq bog'-bonimiz bor. Ekin-tikin ishlari, bog'-rog'ga ular qarashadi. O'z navbatida, ularning mehnatini rag'batlantirib, kasaba uyushmasi tomonidan respublika bo'ylab tez-tez sayohatlar tashkil qilamiz. Ba'zan o'qituvchilarimiz ko'ngilli ravishda yordamga oshiqib qolgan paytlari har kim o'z ishini qilishi kerakligini uqtiraman: o'qituvchi dars berishi kerak, bog'ning o'z ishchisi bor. Bog' tilini ular yaxshiroq tushunadi, bola tilini esa ustozlar...


Umumiy maydoni qariyb to'rt gektar maktab hovlisi rosmiyan yashil hudud – ming tupdan ziyod archa, salkam 500 tup mevali daraxt bor. Fevral oxirlashi bilan yo'laklar chetiga turfa gullar ekiladi. Erta bahor rayon va gullar chechak ochib, siyohi va qirmizi ranglarning tabiiy qorishiq kompozitsiyasi yaratiladi. Ayniqsa, maktab yoqalab o'tgan katta yo'l bo'ylab ekilgan kanna gullari chiroyi yo'llovchilarning-da bahri dilini ochib, xush kayfiyat ulashib turadi.

Maktab nafaqat qishloqda, tumanda ham tanilgan. O'tgan o'quv yilida bitiruvchilarning 55

gun qizlarimizni ilmga ko'proq yo'naltirsak, ular ertaga avlodlar tarbiyasida mas'uliyatni shuncha ko'p his qiladi.

Bir necha yil avval 8-sinfda o'qiydigan bir qizimizda kecha-yotgan holatlar, o'zini tutishi diqqatimizni tortdi: u odamlardan o'zini chetga oladigan, hech kimga hech nima demay darsdan chiqib ketadigan odat chiqardi. Ayrim gap-so'zi bilan dugonalari ham xavotirga qo'ygan. Tabiiyki, biz o'qituvchilar uning har qadamini nazoratga oldik. O'z vaqtida o'rganishlarimiz natijasida bilsak, qiz o'z joniga qasd qilish fikrida yurgan. Bu gap direktorgacha yetib, hamma oyoqqa turdi – o'qituvchilar, psixolog, shifokor... Qiz ruhiyati bilan hamma birdek mashg'ul bo'ldi. Mana, o'sha qiz maktabni tugatib, oila qurib, hozir shirinshakar ikki farzandning onasi. Demochimanki, har bir o'quvchi hayotda o'z yo'lini, oila va jamiyatda o'rinni topib ketishida o'qituvchilarning hammasi ham shunday jon ko'yitishi kerak, aslida.

Haqiqatan, o'qituvchilar o'quvchilar bilan juda yaxshi munosabatda. Shuning uchun ular o'zlarini bilim olgan maskaniga



Boshlanishi 1-sahifada.

Ilm-fanimizda o'z maktabiga ega, jahon tan olgan, kashfiyotlar yaratgan mashhur olimlarimiz ilmiy faoliyati davomida tayyorlagan fan nomzodlari va fan doktorlarining ro'yxati yuqoridagi professor bir yilda tayyorlagan "olim"lardan ancha qisqaroq. Nima, o'sha taniqli olimlar dangasa bo'lishganmi – yiliga bir-ikki, ko'pi bilan uch nafar shogirdi nomzodlik ishi yoqlagan.

...Jiyanim besh yildan buyon tibbiyot fanidan nomzodlik ishini yoqlash uchun yelib-yuguradi. Oyda bir poytaxtga borib keladi, ustoz bilan ilmiy ishi bo'yicha maslahatlashadi, xulosalarini oladi, tajribalar o'tkazadi. Yaqinda u qiziq gap aytib qoldi: "Boshqa bir viloyatdan yosh qiz ham ilmiy ishini men bilan bir vaqtda boshlagandi. Keyin negadir ko'rinmay qoldi. Yaqinda poytaxtga borganimda tasodifan uchratib qoldim. Ishlari bilan qiziqdim. U mening hamon ilmiy ish yoqlamaganimni eshitib, hayron qoldi. "Qiziq ekansiz, haliyam bosh og'ritib yuribsizmi? Men ishimni oson bitkazdim. Shu ish boshida turgan uddaburon biroviga uch ming dollar berdim, shu haq evaziga darrov ilmiy ishni tayyorlab berdi, qarabsizki, bir yilda ishimni yoqladim". Eng qizig'i, u allaqachon doktorlik ishi ustida ishlayotgan ekan..."

Uzoq yillar tarixiy mavzuda tadqiqotlar olib borgan tanishim esa jiyanim afsusla aytish fikrlari to'ldirdi: "Hozir qaysi fan bo'yicha bo'lmasin fan nomzodi, ya'ni falsafa doktori ilmiy darajasini olish juda oson bo'lib qoldi. Bir yilda yoqlab ketayotganlar ham bor. Buning uchun ilmiy ishlarni tasdiqlaydiganlar orasidan tanish topsa bo'ladi... Hatto bir varaqqa sig'maydigan ilmiy tadqiqot qilmagan odam ham "kuf-suf" deguncha falsafa doktori bo'lib turibdi-da!"

Va yana hozirda pul evaziga nomzodlik va hatto doktorlik ilmiy ishini yozib beradiganlar borligi haqida ham gap-so'zlar yuradi.

Nima deymiz? Ilmiy salohiyati bor inson o'zining bilimidan moddiy manfaatdorlik uchun foydalanganiga e'tiroz bildirish qiyin. Ammo bironing mehnati orqasidan "olim" bo'lganlarni oqlab bo'ladi mi?

Urganch davlat universiteti professori Bahovuddin Sodiqov oliygohni tugatgach, aspiranturada qolib, besh yildan biologiya fanlari nomzodi ilmiy ishini yoqlagan edi. Mashhur olim, akademik Sobir Yunusovning shogirdi bo'lgan yosh olim shu davrda to'g'u daralarni kezib, turli giyohlar tarkibida uchraydigan yangi ikkita alkaloid maddasini aniqlaydi. Keyinchalik qolgan umrini talabalarga saboq berishga bag'ishlaydi. Bir vaqtning o'zida akademik Sa'dulla Iskandarov bilan hammualliflikda ilk bora o'zbek tilida talabalar uchun "Organik kimyo asoslari" darsligini ham yozadi.

Domladan "Nima uchun doktorlik ilmiy ishi ustida ishlamadingiz?" deb so'raganimda shunday deb javob qildi: "Doktorlik ishim uchun kamida to'rt-beshita yangi alkaloid kashf qilishim kerak bo'lardi. Buning uchun kamida o'n besh yil umrim sarflanardi. Olimlik mashaqqatli yumush..."

Marhum professor topgan alkaloidlar bugun ham farmatsevtikada doridarmon tayyorlashda ishlatilmoqda...

O'n yillar oldin eldoshim bo'lgan bir ayol nomzodlik ishini ko'rib, tahrir qilib berishimni iltimos qildi. Iqtisod fanlari nomzodligi uchun yoqlashga tayyorlangan ilmiy ish viloyatning besh yillik iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilidan iborat ekan. Statistika boshqarmasida jild-jild bo'lib yotgan raqamlarni o'zaro

taqqoslashdan nima naf chiqishini an'angay olmadim. Olim fan nomzodi bo'lganida tabriklashga uyaldim, rosti...

Yigirma yillar oldin deputat bo'lgan rahbar xodim iltimosiga ko'ra uning uchun "deputatlik so'rovi", "deputatlik hisobotlari"ni tayyorlashda ko'maklashganim bor. Deputatning o'zi bir varaq qog'ozda kamida yigirmata imloviy xato bilan yozardi. So'zni so'zga tirkashdagi chalkashliklarini aytib o'tirmay. Yaqinda o'sha sobiq deputat qaysidir soha bo'yicha falsafa doktori bo'lgani haqidagi xabarga ko'zim tushib, yoqamni ushladim.

Xususiy nashriyot egasi bo'lgan ijodkor ukamiz zorlanib qoldi: "Olimlarning nomzodlik (falsafa doktori) ishlari kitob holida chop qilishimga to'g'ri keladi. Biri tarix bo'yicha ilmiy ish ekan. Salkam yuz ellik betli monografiyada aytilmoqchi bo'lgan fikrni olti-yetti varaqli maqolaga bema'lol singdirish mumkin. Shuncha qog'oz zoye, ketgan vaqtni aytig. Bundan kimga naf?"

Darvoqe, kimga naf? Avvalo, o'ziga. Nomzod bo'lgach dotsentlik martabasiga erishadi. Tabiiy ravishda oylik maoshi oshadi. Keyin doktorlikni ham shu zayl yoqlasa, yana maoshi ko'tariladi. Professorlik o'zni uchun kurashsa, yana oshig'i olchi.

Bu son-sanoqsiz buyurtma ilmiy ishlardan jamiyatga foyda tegayotmi? Tibbiyot sohasida falsafa doktori bo'lganlar marhum professor Bahovuddin Sodiqov kabi bemorga nafi tegadigan dori-darmon tayyorlashda asqatadigan birorta tabiiy unsumni topib, tarkibini tahlil qilishganmi? Tarix bo'yicha ilmiy ish yoqlayotganlar moziyning uzoq yoki yaqin davrida sodir bo'lgan voqealarni hozirgi kun – istiqbol mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishyaptimi, "tariximizning kir va qora kunlari" haqidagi haqiqatlarni qay darajada ochib, xalqimizga yetkazishmoqda? Iqtisod bo'yicha ilmiy ish yoqlayotganlar islohotlar jadal-lashuviga turtki bo'ladigan qandaydir yangilik, iqtisodiy ustqurmlarni taklif qilishdimi?

To'g'ri, fanning ushbu sohalarida ozmi-ko'pmi yangiliklar yaratayotgan fidoyi olimlarimiz bor. Ammo har yil "falon universitetda falon nafar fan nomzodi, fan doktori tayyorlandi" degan ko'tarinki hisobotlarga tirkaladigan "olimlar" nimalar kashf qilishdi degan savolimizga havoda muallaq qoladi.

Yana bir gap. Tanishim ajablanish ohangida aytdi: "Hamma yoqni falsafa doktori bosib ketdi. Kuni kecha universitetni bitkazgan talaba ham bir yumalab falsafa doktori bo'lyapti. Rosti, bugun olimlikning obro'-mavqeyi pasayib ketgan".

Qirg yillik tadqiqotlari natijasida avval fan nomzodi, so'ng fan doktorligi yoqlagan, o'ttizdan ortiq risola, monografiyalari chop qilingan, ilmiy merosi ikki yuz taboqdan oshadigan taniqli bir olim og'riqli mavzumizga nuqta qo'yadigan gapni aytdilar: "Hozir fan nomzodligi uchun tayyorlanayotgan ayrim "ilmiy ish"lar muqaddam talabalar yozadigan diplom ishlari darajasida va hatto undan pastroq ham".

Haqiqiy olimning taassufida jon bor. Falsafa – ilming negizlaridan hisoblanadi. U alohida fan. Abu Nasr Forobiy "dunyoning ikkinchi muallimi" o'laroq buyuk faylasuflar qatorida tilga olinadi. So'nggi bir asrda yurtimizdan dunyo tanigan falsafa fani fidoyilari, sanoqli faylasuflar chiqishgan.

Fanning qaysidir yo'nalishida ilmiy ish qilish ishtiyoqida bo'lgan bo'lg'usi olimlar hali ilmiy ish yozishga

kirishlari bilan bir qator kerak-kiraksiz topshiriq, ko'rsatmalar girdobida qolishadi. Ulardan qaysidir xorij jurnalida maqola chiqarish talab qilinadi. Biladigan insonlar "qo'g'irchoq" deb ataydigan o'sha ilmiy jurnallarda (to'g'ri, ular orasida jahonning eng nufuzli universitetlarining nashrlari ham bor, ammo ularga hammaning bo'yi yetmaydi) maqola chiqarishning o'zi bo'lmaydi. Har bir maqolani chop qildirish uchun falon dollar pul to'lash kerak. O'sha ilmiy jurnallarning adadi qancha, qaysi davlatlarga tarqaladi (tarqaladimi o'zi?), nufuzi qanday? Buning ahamiyati yo'q. Yana ilmiy ishini tayyorlagan yosh olim hali himoya arafasida uni bir necha nusxada nashr qildirishi kerak. Buyam katta mablag' talab qiladi. Qisqasi, ilmiy ish ustida ishlash, qandaydir yangilik yaratish, amaliyotga joriy qilishdan ko'ra shunga o'xshagan "majburiy nashrlar" aksar boshlovchilarning hafsalasini piri qiladi – yosh olimning cho'ntagidan hamisha shamol uvilab turadi axir.

Universitetda tahsil olganimda "Matbuotda parafrazlarning ishlatilishi" mavzusida kurs ishi yozganman. Olti oy davomida bir qator vaqtli nashrlarni erinmasdan varaqlab, aynan mavzuga oid so'zlarni izlab, topib, ularning qaysi o'rinlarda qay ma'noda ishlatilganini tahlil qilganman. Qirg varaqli kurs ishim yuksak baho olgan va hatto bu mavzuni kengaytirib, nomzodlik ilmiy ishi qilishga taklif ham qilishgan. Oilaviy sharoit sabab aspiranturada qololmadim – jurnalist kasbini tanladim.

Hozirda talabalar kurs va diplom ishlarni "qanday yozayotganlari" haqida ham ko'p eshitaman. Ijtimoiy tarmoqlarda barcha fanlar bo'yicha shu mavzudagi kurs va diplom ishlari keragidan ortiq – tiqilib yotibdi. Talaba o'zi tanlagan mavzuni yuklab oladi, sar-pal o'zgartiradi (hafsalasi bo'lsa) va qarabsizki, ishlar "besh". Shu zayl kurs va diplom ishlarni "yoqlagan" talaba keyinchalik shu tariqa osongina olim bo'lishiga ajablanishning hojati yo'q.

Ulamolar ilm o'rganishini igna bilan quduq qazishga tenglashadi. Endi ilmda yangilik yaratishni tasavvur qilavering!

Yana bir mulohazali fikr. Muqaddam "fan nomzodi" deb yuritiladigan ilming ilk bosqichiga bugun "falon fan bo'yicha falsafa doktori" degan qo'shimcha qo'shilihida qanday mantiq bor? Balki, bu yangilik boshqa davlatlar tajribasidan kelib chiqib iste'molga kirgandir, ammo... falsafa doktorlari yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek ko'payib ketgan davrda har bir ilmiy ishning qiymati, darajasi, jamiyatga, davlatga va iqtisodimizga foydasi qanday?

Mustaqillik davrida ilmiy darajalar berishning markazlashgan tizimi tashkil qilindi. Bu esa sobiq sovet davrida amaliyotda bo'lgan tizim – har bir yoqlagan ilmiy ishning Moskva-dagi maxsus organ tomonidan tasdiqlanishidek amaliyotga chek qo'ydi. O'sha davrlarda himoya qilingan ish tasdiqlanishini yillab kutishga to'g'ri kelardi. Mustaqillik o'laroq ilming bu richagi o'z qo'limizga o'tdi – OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) tuzildi. Bu yaxshi. Ammo yuqoridagi mulohalarimizdan kelib chiqqan holda so'ramoqchi bo'lganimiz – OAK har bir yoqlagan ilmiy ishni qay darajada nazoratdan o'tkazmoqda? Hozirgacha ko'chirilgan yoki birtorta qiymati yo'q ilmiy ish bekor qilinganmi? Qilinishi mumkinmi?

Ushbu mulohaza va savollar havoda muallaq qolib ketmas deb umid qilamiz.

**Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi**

BOG'LARIDA BAHOR BOR...

Maktab 900 nafar o'g'il-qizni bag'riga sig'diradi. Shunday katta sig'imga ega dargoh 2021-yilda – qurilganidan roppa-rosa qirg besh yil o'tib qayta ta'mirlandi. Ta'mir ishlariga davlat byudjetidan 5 milliard so'mdan ko'proq mablag' sarflandi. Maktab jihozlari ham to'liq yangilab berildi. Albatta, uning davlat dasturiga kiritilib, kapital ta'mirdan chiqishida direktor Baxtiyor Salimovning ham xizmati katta.

Baxtiyor akaning maktab pedagogik jamoasiga rahbarlik qilayotganiga yigirma yildan oshdi. U saksoninchi yillarda oddiy o'qituvchi bo'lib ishga kirib, tashabbuskorligi va boshqaruv qobiliyati bilan tezda e'tiborga tushdi. Ko'p o'tmay unga o'zi faoliyat olib borayotgan maktab boshqaruvi ishonib topshirildi.

Hozir uncha-muncha ta'lim muassasalaridan qolishmaydigan maktabning zamonaviy tipidagi 40 ta sinfxonasida 1136 nafar o'quvchi ikki smenada tahsil olyapti. Ularga 100 ga yaqin ustoz-murabbiy dars beradi. O'qituvchilardan 12 nafari oliy, 23 nafari birinchi va 34 nafari ikkinchi toifali.

Maktabda bir qancha to'g'araklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. O'quvchilar bilim olish barobarida kasb-korga ham yo'naltirilmoqda. Bu borada maktabga keltirilgan 8 ta tikuv mashinasi, elektr arra, payvandlash uskunalari ancha qo'l kelmoqda. O'g'il-qizlarga kundalik hayotda muhim kasblardan sataroshlik, tikuvchilik kabi hunarlar o'rgatib kelinmoqda. Bugun 1-maktab o'quvchilari orasida sifatlilik eshik-rom, stol-stul, xontaxta, taqinchoqlar yasab, mahallada e'tiborga tushayotganlari ko'p.

Biror o'quvchimiz bekor yurmaydi, – deydi Baxtiyor Salimov. – O'quvchilarimizdan aksariyatining ota-onasini ham o'qitganman. Shuning uchun ularning oilasidagi shart-sharoitdan yaxshi xabardorman. Qishlog'imizda hammaning uyida issiqxonalar bor. Bu degani, o'quvchi tomorqada ishlaydi, band bo'ladi. Hamma ham o'qishda birdek faol bo'lmasligi mumkin, kimlarningdir hunarga uquvi zo'r bo'ladi.

foizi nufuzli oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilindi. Bundan tashqari, 260 o'rinni faollar zalida kunda-kunora ta'dbir o'tkaziladi. Ayniqsa, qizlar uchun tarbiyaviy loyihalar, yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, kitobxonlikka oid har xil yig'inlar tez-tez o'tkaziladi. O'quvchilar o'zlarini tuzgan "Turon" teatr truppasi esa har oy bir asarni sahnalashtirib kelmoqda. Shuningdek, yosh aktyorlar



tomonidan ikki haftada bir marta jadidlar hayotidan ko'rinishlar ham namoyish etiladi.

– Maktabdagi tadbirlarga ota-onalarni ko'proq jalb qilamiz, – deydi ma'naviyat-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nilufar Qalandarova. – Bu bir tomondan o'quvchilarni ruhlantirsa, boshqa tomondan ota-onalarning farzandi iqtidorini aniqlab olishi uchun imkon beradi. Har chorak yakunida ta'til-oladi kitob yarmarkalarini tashkil qilamiz. Ota-onalarning ba'zilari bolalariga kitob olish asnosida, maktab kutubxonasi uchun ham badiiy adabiyotlar tuhfa qilishadi. Maktabimiz kutubxonasi 4 mingdan ortiq badiiy, ilmiy-ommabop kitob, bundan tashqari yurtimizda chop etiladigan gazeta-jurnallar bilan to'la.

Maktabimizda 566 nafar o'quvchi-qiz ta'lim olmoqda. Biz ustoz bo'lib ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratamiz, ular bilan ko'proq ishlaymiz. Boisi mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ilim-fan, ta'lim-tarbiyadir. Bu-

o'qishni tugatgandan keyin ham serqadam, yuksak ehtiromda. Kim kitob, kim gul keltiradi, o'quv jihozlari tuhfa qilgan qancha. Maktab hovlisiga o'g'il-qizlar uchun yangi dizayndagi o'rindiq-lar yasab bergan otaning himmati ham mana shu maktab mevasi. Ayniqsa, Ravshan Shernazarov, Abdumajid Nazarmatov kabi sobiq o'quvchilarning doimiy yordamlari tufayli direktor imkon darajasidagi ishlarga

mutasaddi tashkilotlarni bezovta qilavermaydi.

O'tgan o'quv yili "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida ushbu maktabga 18 ta elektron doska, ikkita zamonaviy kompyuter jamlanmasi ajratildi.

– Maktab tumanimizdagi 42 ta ta'lim maskani ichida eng namunalilaridan biri, – deydi Paxtachi tuman maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmasi bo'lim boshlig'i Anvar Nosirov. – Prezidentimiz tomonidan ta'limga izchil e'tibor qaratib kelinyotgan barcha darajadagi rahbarlar mas'uliyatini oshirib, o'quv tizimi yuksalishiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda. Jumladan, o'qituvchi va o'quvchilarning majburiy mehnatdan ozod qilingani, so'zsiz, har qanday maktabning respublikada eng namunali o'lm maskaniga aylanish imkonini o'n-yuz chandon oshirdi, desak xato bo'lmaydi. Sharoitimiz, imkoniyatlarimiz tubdan yaxshilandi. Endi biz maorifchilar yaratilgan ushbu shart-sharoitga munosib faoliyat ko'rsatsak, yoshlarga ta'lim berish barobarida tarbiyasiga ham ko'proq e'tibor qaratsak, nufuzli davlatlar ichida o'z o'rnimizni topishimizga ishonchim baland.

Aslida, maqsad ham shu. Yangi O'zbekiston yoshlari har jabhada dunyoni zabt etmogi va kelajak bog'ining azim daraxtiga aylanmogi shart!

Muhayyo RUSTAM qizi



“ Yigitlikda yig' ilmning maxzani, Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.

Alisher NAVOIY






JAHON AYVONIDA

BAYDEN TRAMPNI QATTIQ TANQID QILDI

AQSning sobiq prezidenti Jo Bayden davlat rahbari lavozimini tark etganidan beri birinchi marta Donald Trump ma'muriyatining harakatlarini tanqid qildi, deb yozmoqda "Washington Post" va CNN.

"Bu ma'muriyat 100 kundan kamroq vaqt ichida shuncha zarar va vayronagarchilikka yo'l qo'ydi. Bu narsa shunchalik tez sodir bo'lishi mumkinligi hayratlanarli", - dedi Bayden Chikagoda nogironlar huquqlariga bag'ishlangan konferensiyada.

Bayden, shuningdek, hukumatning ijtimoiy ta'minot sohasidagi siyosatini ham tanqid qildi. Uning so'zlariga ko'ra, rasmiylar Ijtimoiy ta'minot agentligini ommaviy ishdan bo'shatish orqali unga "halokati zarba bergan".



PARIJDA HAVO IFLOSLANISHI KAMAYDI

So'nggi 20 yil ichida Parij avtomobillar harakatini cheklash, yashil hududlar va velosiped yo'laklari uchun joylar ajratishni o'z ichiga olgan ekologik siyosat tufayli havoning ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirdi.



Fransiya poytaxtidagi havo sifati monitoringi bilan shug'ullanuvchi "Airparif" mustaqil tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Parijda qattiq zarrachalar (PM 2,5) darajasi 200 yildan beri 55 foizga, azot dioksidi darajasi esa 50 foizga kamaygan.

XIYONAT UCHUN SUDLANGANLAR SONI ORTDI

Rossiyada 2024-yilda 145 kishi davlatga xiyonat bo'yicha sudlangan. Bu haqda Sud departamenti ma'lumotlariga tayanib, "Важные истории" xabar berdi.

Qayd etilishicha, bu 2023-yilgi ko'rsatkichlardan to'rt barabarga ko'p va Rossiya tarixidagi barcha ko'rsatkichlardan yuqori.

RFda o'tgan yili davlatga xiyonat va josuslik uchun qariyb 170 kishi sudlangan. Shuningdek, maxfiy ravishda chet el davlatlari bilan hamkorlik qilishda ayblanganlar soni 10 baravarga oshgan.



DUNYONING ENG NUFUZLI 100 KISHISI

AQSning "Time" jurnali tomonidan har yili tuziladigan dunyodagi eng nufuzli 100 kishi reytingi e'lon qilindi.



"Yetakchilar" toifasiga AQSh prezidenti Donald Trump, vitse-prezident Jey Di Vens, SpaceX asoschisi Ilon Mask va savdo vaziri Hovard Lyutnik kiritildi. Shuningdek, ushbu toifadan Britaniya bosh vaziri Kir Starmer, Germaniyaning bo'lajak kansleri Fridrix Mers, Argentina prezidenti Xayver Miley va Suriyaning muvaqqat prezidenti Ahmed ash-Shar'a ham o'rin oldi.

Ro'yxat jami olti toifaga ajratilgan. "Time" san'at arboblari toifasiga qo'shiqchi Ed Shiran va aktrisa Skarlett Yohanssonni kiritgan. "Kumirlar" bo'limida aktyorlar Demi Mur va Edriyen Broudi ham bor.

ILM YO'LI

XX asrning boshlari ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy muhiti o'zigacha kechgan davrlardan va hozirgi kundagi holatdan jiddiy farq qiladi. Dunyo o'zining bir qator ilmiy va ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan modern zamonga qadam tashlagan kunlardan to'rt yuz yil o'tib jadidlik harakati g'oyalari endi demokratik davr muhitga ko'chdi. Istiqbol bir erkinliklari tufayli barcha turkiy xalqlarning yaqinlashuvi aspektida madaniy va hamkorlik aloqalarida mazkur g'oyalarning amaliy ifodasini kuzatish mumkin. Bu jarayonda o'zbek, ozarbayjon, turk, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va boshqa xalqlarning faolligi tufayli integratsiyalashuv jarayoni birmuncha tezlashdi.

Ayniqsa, adabiyot har doimgidek yetakchilik rolini zimmasiga olgani, "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jilddan iborat adabiyotlar nashri o'zbek tilida chop etilayotgani boshqa turkiy xalqlar hayotida ham muhim hodisa sifatida e'tirof etilayotir.



Professor Badirxon Ahmadli

Ozarbayjon maorifchilari Mirzo Fatali Oxundzoda, H.Zardobi, A.Husaynzoda, A.Og'ao'g'li, o'zbek jadidlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, turk yangi adabiyoti namoyandalari M.A.Yurdaqul, Y.Oqjo'ra, Ziyo Ko'kalp va boshqalarning o'zaro hamkorligi natijasida umumturk jadidlik harakati dunyodagi taraqqiyparvar kuch o'laroq tanildi.

Bugun ham ushbu harakat Uyg'onish adabiyotining tamal toshini qo'ygan hodisa sifatida baholalanmoqda. Mana shu hamkorlik rishtalarini bog'lab turgan siymolar tufayli umumturk adabiyoti jahon adabiyotining muhim bir uzviyga aylandi. Shunday olimlardan biri Ozarbayjon Milliy

Boshlanishi 1-sahifada.

Manbalarda Abu Bakr Juzjoniy Imom Moturidiyning ilk ustozlaridan ekaniga urg'u beriladi. Juzjoniy Movarounnahr, xususan, Samarqanddagi hanafiy mazhabi fiqhii maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Abu Muin Nasafiy "Tabsirat al-adilla" asarida keltirishicha, Abu Bakr Juzjoniy mashhur olim Abu Sulaymon Juzjoniydin ta'lim oladi, so'ng Samarqandga kelib, ilm va ta'limotni yoyish bilan mashg'ul bo'ladi. Keyinchalik Samarqandda Abu Muqotil Samarqandiy, Abu Bakr Samarqandiy kabi yirik ilohiyotchi olimlar keng qamrovli faoliyat olib borishadi. Jumladan, Abu Muqotil Samarqandiy bu yerda mashhur "Kitob al-olim val-muta'allim" ("Olim va shogird kitobi")ni yozadi.

Olim olimi Ulrix Rudolf "Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" kitobida ta'kidlashicha, Abu Mansur Moturidiy hanafiy mazhabi ta'limotini aynan Abu Bakr Juzjoniydin o'rgangan. Shu nuqtayi nazardan ham u Imom Moturidiy atrofidagi ilmiy muhitning shakllanishiga sezilarli hissa qo'shgan deb qaraladi.

Abu Mansur Moturidiy ilmiy muhitining shakllanishida Abu Nasr Iyoziy (vafoti 277/890-y.)ning ham xizmati katta. Movarounnahrdagi ko'pgina yirik olimlari Abu Nasr Iyoziy faoliyatini yuqori baholashib, uning qomusiy bilimlariga alohida urg'u berishgan. Abul Mute Nasafiy olimni tavsiflab, "ilm sohasida tubsiz ummonga monand edi", deb yozadi. U yigirma yoshida tengdoshlaridan bilim borasida anchagina ilgirilib ketgan bo'lib, aql-u zakovati o'tkirliги, sabr-toqati, o'ta sinchkovligi bilan munozaraga kiruvchi har qanday odamni asosli javobi, Qur'oni Karimdan keltirgan dalillari bilan tang qoldirar edi.

"Ahli Sunna va Jamoa e'tiqodining majmuasi ikki qutbning so'zidir. Bu ikki qutb: Imom Abul Hasan Ash'ariy va Imom Abu Mansur Moturidiydir. Bu ikki imomning qay biriga ergashsang, hidoyatga erishib buzuq e'tiqod va toyilishdan salomat qolasan."

Shayx Hasan ibn ABU AZUBA

HIDOYAT YO'LBOSHCHISI

Moturidiy ta'limotining shakllanishi, ilmiy jihatdan boyishi va keyingi avlodlar tomonidan eng hayotiy nizom sifatida qabul qilinishida allo-ma tarbiyalagan olim-shogirdlarning xizmati beqiyosdir. Abu Mansur Moturidiy o'z ilmiy muhitining rivoji va uning boshqa hududlarga tarqalishiga asarlari orqali ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Uning dastlabki shogirdlaridan biri mutakallim Abu Nasr Iyoziyning farzandi Abu Ahmad Nasr ibn Ahmad Iyoziy hisoblanadi. Abu Ahmad ilohiyot ilmlarini avval otasidan, so'ng Abu Mansur Moturidiydan chuqur o'rgangan. Kalom ilmidagi yuksak salohiyati bilan tanilib, olimlar orasida katta shuhrat qozongan. Abu Hafs Buxoriyning ma'lumotlariga ko'ra, u haqiqatparvarligi sababli hanafiy mazhabiga yot fikr va xulosalarning kirib kelishiga yo'l qo'ymagan. Shu tariqa mazhab so'fginini saqlashga chin dildan xizmat qilgan. Hakim Samarqandiy olimni ta'riflab, "Xuroson hamda Movarounnahrdagi eng yetuk olimlardan edi", deb yozadi. Abu Ahmad mo'taziliylar bilan keskin bahslar olib borgan va uning bu boradagi fikrlari ustozu Abu Mansur Moturidiy qarashlari bilan hamohang edi. Abu Ahmadning hayoti, ilmiy merosi haqida Abu Muin Nasafiyning "Tabsirat al-adilla" kitobida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

Abu Ahmad Abu Mansur Moturidiy ta'limotining keyingi asrlardagi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ayniqsa, Abu Ahmadning shogirdi Abu Salom Muhammad ibn Muhammad Samarqandiyning mazkur ta'limot rivojlanishi va tarqalishida katta ulushi bor. Taxminan X asrda yashab ijod etgan bu olimning "Jumal usul ad-din" ("Din asoslari majmu'i") asari moturidiylik an'analari davom ettirilgan, davrimizga qadar yetib kelgan eng dastlabki ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar qo'lyozmasi Istanbuldagi Sulay-

moniya qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi. Qo'lyozma matni 1989-yili Istanbulda nashr etilgan. Ulrix Rudolfning yozishicha, asar Imom Moturidiydan so'ng Samarqandda bitilgan an'anaviy ilohiyotga oid asarlar uslubidan farq qilsa-da, Moturidiy g'oyalarga to'liq mos keladi.

Moturidiylik ilmiy muhitining rivojiga Abul Hasan Ali ibn Said Rustufag'niy (vafoti 350/961-y.) ham katta hissa qo'shdi. Olim Moturidiyning shogirdlaridan biri bo'lib, u Samarqand yaqinidagi mashhur Rustufag'niy qishlog'ida



dunyoga kelgan. U Imom Moturidiyning eng ko'zga ko'ringan, ilmiy bahslarda mustaqil, erkin fikrlari bilan faol ishtirok etadigan shogirdlaridan biri edi. Olimning nisbasiturlimanbalarda Rustufag'niy, Rustufag'niy ko'rinishida ham uchraydi. Ibn Abul Vafoning "Al-Javohir al-muziyaya" asarida qayd etilishicha, Abul Hasan "fiqh bo'yicha ham bilimdon olimlardan" bo'lgan. Manbalar fiqh, ilohiyot ilmlarini mukammal egallagan Abul Hasan Rustufag'niyning to'rt asar yozgani haqida xabar beradi. Birinchisi, olimning fatvolar yig'indisi hisoblangan "Fatovoyi Rustufag'niy" asari. Olimning turli qomusiy lug'atlarda nomi keltirilgan ikkinchi asari "Kitob al-xilof" ("Munozaralar kitobi") esa hozirga qadar topilmagan. Kalom ilmiga bag'ishlangan eng asosiy hamda muhim asari "Kitob irshod al-muhtadiy" ("To'g'ri yo'lidan yuruvchiga

yo'llanma") deb nomlanadi. Ushbu asar Ibn Qutlubug'oning "Toj at-tarajim", Muhammad Abdulhayning "Al-Favoyid al-bahiyya" asarlarida yuksak e'tirof etiladi. Abul Hasan o'rta asr olimlariga ergashgan holda ularning ijodiga xos qomusiy asar yozish yo'lidan borib, ilmlar tasnifiga bag'ishlangan "Kitob az-zavoyid val-favoyid" ("Qo'shimchalar va foydalar kitobi") asarini bitadi. Ushbu silsilaga Abu Zayd Balxiyning "Aqsom al-ulum" ("Ilmlarning qismlari"), Ibn Farug'ning "Javome al-ulum" ("Ilmlarning jamlovchilari"), Xorazmiyning "Mafotih al-ulum"

("Ilmlarning kalitlari") asarlarini ham kiritish mumkin. Bunday asarning hanafiy mazhabidagi olim, Imom Moturidiy shogirdi tomonidan yozilishi uning har tomonlama yetukligidan dalolat beradi. Bu esa X asrda Imom Moturidiy ta'limotining keng yoyilishi, shuningdek, hanafiy mazhabining Movarounnahrdagi rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Imom Moturidiy hayoti, ilmiy merosi hamda moturidiylik ta'limoti shakllanishiga hissa qo'shgan ustoz va shogirdlar haqidagi manbalarni izlash, ularni tarjima qilib, ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Prezidentimizning mazkur yo'nalishda qabul qilgan qarori esa bu jarayonni tizimli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zohidjon ISLOMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

TURKISTON VA OZARBAYJON

ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon-Osiyo adabiy aloqalari bo'limi mudiri, filologiya fanlari doktori Badirxon Ahmadlidir.

Olimning dastlabki ishi "Sobit Rahmon satirasi" deb nomlanib, unda satira nazariyasi ishlangan edi. Sovet davrida satirani faqat o'tmish adabiyotiga nisbatan qo'llanilishi, zamonaviy adabiyot esa yengil yumor bilan kifoyalaniishi shart bo'lgan davrda qahramonimiz nafaqat Sobit Rahmon satirasi, balki ozarbayjon satirasining taraqqiyot yo'llari haqida "Ozarbayjon satirasining inkishof muammolari (1920-1980)" dissertatsiyasini yoqladi. Uning har ikki tadqiqot ishi ham monografiya tarzida chop etildi. Olim "Vatan ovozi", "Ozarbayjon o'rdusi" gazetalarda faoliyat ko'rsatgan davrda ham ilmiy faoliyatdan uzoqlashmadi. Boku Slavyan va Hazar universitetlarida ma'ruzalar o'qidi. Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida hozirga qadar bo'lim mudiri va professor o'laroq faoliyat ko'rsatmoqda. "Bir Istiqloq yo'lchisi" monografiyasida 1938-yili nohaq qatl etilgan adabiyot tarixchisi Amin Obidiyning murakkab faoliyatini yoritdi. Olim adabiyot tarixi bilan birga folklorshunos, oxundzodashunos bo'lganini ilmiy manbalar asosida isbotladi. Uning "Gultekin" taxallusida yozilgan antibolshevik ruhdagi asar-

larini tahlil etish bilan birga shoirning "Tanlangan asarlar" (2007), "Ozarbayjon turklarining adabiy tarixi" (2016), "Ozariy adabiyoti tarixi" (2021) asarlarini nashrga tayyorlab chop etirdi.

Professor Badirxon Ahmadlining "XX asr ozarbayjon adabiyoti: tendensiyalar va muammolari" monografiyasi (2015) milliy adabiyotning barcha jihatlarini qamrab olgani bilan xarakterlanadi. Tadqiqotda muallif davr adabiyotining asosiy yo'nalishlari, janrlar tarkibi va ijodkorlar uslubi, qolaversa bu adabiyot deyarli barcha adabiy turlarda sobiq ittifoq tarkibidagi adabiyotlarning hech biridan qolishmas, balki turkiy xalqlar adabiyoti uchun namuna bo'larlik jihatlariga ega ekanligini ko'rsatib bergan. Tadqiqotda realizm, ma'rifiy realizm, tanqidiy realizm, sotsrealizm kabi "izm"lar bag'rida ozar adabiyoti taraqqiy etgani adabiy siymolar kontekstida tahlil etilgan. Boshqa tadqiqotlardan farqli o'laroq muallif Jumhuriyat davri adabiyotini ilk da'fa tahlilga tortib, adabiy jarayon masalalari, madaniy muhit, nasr, she'riyat va dramaturgik asarlar kabi yo'nalishlarda yangi ozarbayjon adabiyotiga asos bo'lganini ko'rsatdi.

Muallif tiklagan monografiyada yuz yillik adabiy hayot, tendensiya va muammolar tasnifotiga yangi ilmiy qarash bilan yondashilgan. Bunday yangi nazariy qarash XX asr adabiyotini davrlashtirishda

ko'zga tashlanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga nisbatan "milliy harakat davri" sifatida yondashilgani, uning nazariy asoslari va adabiy faktlarini shu jihatdan tahlilga tortgani bu fikrni asoslaydi. "Molla Nəsrəddin" jurnali va uning adabiy harakati, "Ozarbayjon satirik matbuoti va milliy o'ziga xoslik muammolari", "Fuyuzot" va fuyuzotchilik konsepsiyasi, "Proletar matbuotida ijtimoiy fikr shakllanishi muammolari" kabi bo'limlar sarlavhalarining o'ziyoq tadqiqot ilmiy ko'laminu ko'rsatib turibdi. "Ozarbayjon adabiyotida romantizm bosqichi va uning adabiy-estetik tamoyillari", "Tanqidiy realizm bosqichi: genezisi va taraqqiyot tamoyillari", "Ma'rifatchilik harakati va maorifiy realizm adabiyot", "Jumhuriyat adabiyoti: milliy istiqloq g'oyalari tashakkuli" kabi masalalar tahlili bu davr adabiyotining boyligini ko'rsatadi. Shuningdek, monografiyada milliy adabiyotning shakllanishidan tortib uning yetuk ta'sirlantiruvchi adabiyot darajasiga erishuviga qadar bosib o'tgan murakkab adabiy yo'l chizib berilgan.

Professor Badirxon Ahmadli ilmiy faoliyatining muhim jihatlaridan biri "Ozarbayjon muhojir adabiyoti: shakllanishi, muammolari va shaxsiyatlari" (2017) masalasiga o'rin berilganidir. Bu monografiyada ham izchil nazariy fikrlar vositasida ta'kidlanib, ilk da'fa legion adabiyoti muhojirlik adabiyotining bir qanoti sifatida ko'rsatilgan.



MILLAT FIDOYLARI

1917–1922-yillarda Turkiyaning Istanbul universitetida o'qib qaytgan muallim Shohid Eson Musayev shunday yozadi: "Eng issiq, qizg'in va qumli bir cho'lda tirikchilik qiladig'ron kishiga suv, salqin havo qancha kerakli bo'lsa, bu kungi millatlar orasida yashayturg'on qavmlar uchun maktab va maorif ham shunchalik kerakdir... Bir zamonlar bashariyatning yo'lboshchisi va rahbari edik. Butun dunyo bizning yoqqan mash'alalarimizdan yorug'liq olar edi. Bu kun esa bashariyatning falaj bo'lib qolgan bir qo'limiz..."

Eson afandining "Biz va maorif" maqolasidan ushbu iqrorarlar bir tomondan mamlakat taraqqiyotida maorif masalasining naqadar muhim ekanligini ko'rsatsa, boshqa tomondan "falaj bo'lib qolgan qo'ldan jamiyatga yetishi mumkin bo'lgan ziyon-zahmatni-da anglatadi.

Jadid bobolarimiz millatni uyg'otish, jamiyatni mavjud falajlikdan olib chiqish uchun bor diqqati, umidi, maqsadini ta'limga qaratgani, bu yo'lda kerak bo'lsa o'z hisobidan maktablar ochib, darsliklar yozib, xalqni ilm-u ma'rifatga undagani bejiz emas. Namanganda jadidlik harakati sardorlaridan biri, muallim Asror Zayniddinov zamonasining ana shunday yoniq qalb egasi bo'lgan...

Asror Zayniddinov 1885-yili Namangan shahri Chuqurko'cha mahallasida to'quvchi-hunarmand oilasida tug'ilgan. Bolalikdan ilmga chanqoq Asror eski maktabda tahsil ko'rib, 17–22 yoshlarida madrasada dars bergan. Uning dunyoviy ilmlarni egallashga ham ishtiyogi baland ediki, mamlakat kelajagi aynan shu sohada qo'lga kiritiladigan yutuqlar bilan belgilanishini juda yaxshi tushunardi. Jadidlar ta'limga ehtiyoj borasida matbuotda to'xtovsiz chiqishlar qilar, garchi bu o'z boshlarini kundaga tutib berish bilan barobar bo'lsa-da, ularning har so'zi mohiyatdan ma'rifatga borib taqalardi. Bundayin jasorat, eng avvalo muallimlarga ruh bag'ishlar, ular shu tariqa Behbudiy aytmog'chi "dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozim"ligi, "zamonana ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lishi"ni boshqalarga qaraganda tezroq, teranroq anglardi.

Turgan gapki, sovet rejimi boshqa millatlarning ilmi, ma'rifatli bo'lishini istamas, xalqning qalb ko'zini ochuvchi ziyo ahlini xushlamas edi. Qahramonimiz ham o'shanday "xushlanmas" shaxslardan biri bo'lib, birinchilar qatorida qirg'inga duchor bo'ladi. Bu haqda keyinroq...

Asror Zayniddinov 1910-yildan Qo'qondagi jadid maktabida o'qituvchi bo'lib ishlash asnosida madrasada taniqli ma'rifatparvar, yirik tilshunos, adabiyotshunos olim, Turkistondagi jadidlik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Ashurali Zohiriydan tahsil oladi.

Bilamizki, Ashurali Zohiriy Qo'qondagi birinchi dorilmuallimin tashkilotchisi va dastlabki zamonaviy maktablarning muallimi sifatida Farg'ona vodiysi uchun ko'plab o'qituvchilarni yetishtirib bergan. U asos solgan dorilmuallimin keyinchalik pedagogik texnikumga aylantirilib, 1930-yili texnikum bazasida Farg'ona davlat pedagogika instituti tashkil etilgan.



Ashurali Zohiriy (1885–1937)

Asror Zayniddinov faoliyatida ham ustod Ashurali Zohiriy saboqlari ulkan maktab vazifasini o'tab, uning yo'li jadidlar harakati bilan rosmiyan tutashishga turki bo'lgan. Qahramonimizni 1919-yildan boshlab jadid harakatining atoqli vakillari bilan bir safda "Ittihod va taraqqiy" tashkilotida ko'ramiz. Ushbu tashkilotning Namangandagi raisi taniqli jadid Zayniddin qori Nasriddinov bo'lib, Asror Zayniddinov esa uning kotibi lavozimida faoliyat yuritadi.

SO'NGGI DARS

Namanganda Asror Zayniddinov dastlab o'qituvchi, so'ng maktab mudiri (1921), Vaqf bo'limi mudiri (1925), Uyezdi ijroiya komiteti mas'ul kotibi (1926-yilgacha), keyinchalik "Vaqf" bo'limi mas'ul kotibi, Namangan uyezdi xalq ta'limi bo'limi mudiri (1928-yilgacha) lavozimlarida ishlagan. O'z faoliyatini davomida Namangandagi vaqf ishlari, vaqfga qarashli maktab va boshqa muassasalarni tartibga solish, tarixiy-me'moriy obidalarini ro'yxatga olish va ta'mirlash ishlarga bevosita bosh-qosh bo'lgan.

Ma'rifatparvar Said Ahriy ta'biricha, "Bir elning taraqqiyoti, madaniylashmagi, baxtiyorligi u elni tashkil etgan shaxslarning bilimli, kuchli, g'ayratli va ishsevar bo'lishiga bog'liqdir. Shuning uchun ko'pchilikning kamoli shaxslarning kamoliga bog'liqdir".

Ayni haqiqatni boshqalardan ko'ra ertaroq tushungan, anglagan, his qilgan qahramonimiz el baxtiyorligi uchun kurashda aslo chekinmadi. U o'zida bor ilm-u salohiyat, kuch-g'ayratni madaniyat va maorif rivojiga qaratar ekan, bu borada dunyoning kun sayin taraqqiyolashib borar davlatlaridan ortda qolmoqlikni o'ziga o'lim bilan teng ko'rdi. Elni xo'rlikda emas, hurlikda ko'rmoq uchun kurashdi: na bo'hton, na ta'qib-u tazyiqlar yo'ldan qaytaroldi. Bil'aks, 1927-yilga kelib namanganlik taraqqiyotparvar jadidlar tuzgan "Milliy qo'mita" yashirin tashkilotiga kirgach, shu paytga do'vor o'ylagan niyat-u azmi mahkamlandi. Chunki ushbu tashkilot O'zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan olib borilayotgan yer-suv islohoti, quloqlashtirishga qarshi chiqib, sovet hukumatidan O'zbekiston mustaqilligini talab qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

1920-yillar oxirlarida sovet hokimiyati tomonidan jadidlik harakati faollari jamiyat orasida obro'sizlantirish, ularning sha'n-u qadr-qimmatini oyoqotish, bu orqali ularni ijtimoiy faoliyatdan chetlatish, hukumat idoralardan bo'shatish, partiya safidan o'chirish harakati avj oldi. Bu paytga kelib el ichra o'ziga yarasha obro' qozonib ulurgan, Namangan vaqf bo'limi rahbari lavozimida ishlab kelayotgan Asror Zayniddinovni go'yoki "fosh qilish"ga bag'ishlangan "Tilga kel-

gan varaqlar" maqolasi bosilib chiqadi. Unda ustma-ust qalash-tirib tashlangan bo'htonlar, bir talay uydirmalar "asos" bo'lib, jadid Asror Zayniddinov hamda Namangandagi "Vaqf" idorasi xodimlari ustidan "tekshiruv" o'tkaziladi. Natijasi ma'lum: ular egallab turgan lavozimidan ozod qilinadi. Sovetlar nishoniga tushib qolgan Asror Zayniddinovning bundan keyingi hayoti halovatga begona bo'lib, tun-u kun tahlil o'stada kechdi.



"Hujum" harakati

XX asrning 20–30-yillari. O'rta Osiyo mintaqasi ayollari taqdirida tub burilish yasagan davr. Xotin-qizlarning turmush tarzi, ijtimoiy faolligi, jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy xulq-atvori o'zgarib bordi. Gap "Hujum" haqida. Sovetlar tomonidan go'yoki "ayollarni ozod qilish" shiori ostida amalga oshirilgan ushbu harakat jamiyatda, odamlar orasida turli nizolar keltirib chiqarib, norozilik kayfiyatini kuchaytirib yuborayotgandi. Vaziyat kun sayin taranglashib borar ekan, qahramonimiz bu borada harakatni amalga oshirish usullarini keskin tanqid qilib chiqdi. Bu esa sovetlar-ga xush kelmasligi aniq edi. Holbuki, u mazkur jarayonni birdaniga emas, asta-sekin, tushuntirish yo'li bilan amalga oshirish kerakligini, avvaliga ayol-qizlarga ta'lim berish, shundan so'nggina ularni ijtimoiy hayotga qo'shish lozimligini yoqlab chiqqandi. Biroq bu bayonotlar sovet hokimiyati siyosatiga qarshi chiqish sifatida baholanib, Asror Zayniddinov 1928-yili "ayolini ijtimoiy ishlarga jalb qilishdan bosh tortganlik"da ayblanadi va uch

oy muddatga partiya a'zoligidan chetlatiladi.

Bu mahal sovet hokimiyati tomonidan muxolif tashkilotlarga a'zo bo'lgan jadidlarga nisbatan qatag'on jarayoni kuchaya boshlagandi. 1929-yili "Milliy qo'mita" tashkiloti raisi Zayniddin qori barobarida tashkilotning barcha a'zolari hibsga olinadi. Ular qatorida Asror Zayniddinov ham OGPU xodimlari tomonidan turmush o'rtog'i va hali esini endi taniy boshlagan farzandi ko'z o'ngida

Kishanband qilinadi. Asror Zayniddinov OGPU maxsus kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-, 4-, 10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil muddatga konslagerda qamoq jazosiga hukm qilinadi. Qahramonimizning bundan keyingi taqdiri noma'lum.

...To'g'ri, xalqni yorug'likka undagan millat yetakchilari nomiga "millatchi" tamg'asi urilib, oydin yuzlar qoralandi. Biroq ong-u shuurimizdan joy olgan jadidlarni ma'rifat yo'lidagi kurashdan na qamoq, na qatl qaytara oldi. Zero, ular nomini tarixga boqiy muhrlagan mangulik siri ham aynan mana shunda – jonfdollikda!

Qahramonimiz nainki muallimlikdagi murakkab qismati, balki har qanday holda ham ezgu amalga vafo-sadoqati bilan biz o'quvchilarga so'nggi sabog'ini, mangulik darsini o'tib ketdi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Said Vali Said Ahmedov – 1885-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan. Inqilobgacha Toshkent shahrida tegirmon idorasida kotiblik qilgan. 1930-yili 1-oktyabrda hibsga olingan. Oradan 10 oy o'tib, 1931-yil 2-iyulda tergov qilingan. Said Vali Said Ahmedov Munavvar qori Abdurashidxonov, Sadridin Xon bilan birga "Milliy ittihad" tashkilotining markaziy komiteti a'zosi bo'lgan. U 1923-yili "10"lar va "Milliy ittihad" a'zosi sifatida tashkilot ishini faollashtirish maqsadida mablag' topgan. Xorijiy davlatlar vakillari bilan aloqada bo'lgan. "10"lar uchrashuvi ayni uning uyida bo'lib o'tgan.

Aksilinqilobiy tashkilotning a'zosi bo'lgani, o'z oldiga sovet hokimiyatini og'darishga intilgani, Turkistonda burjua davlatini barpo etish uchun kurash olib borgan uchun ayblangan. OGPUning 1931-yil 3-noyabrda maxsus kengashida Said Vali Said Ahmedov uch yil muddatga G'arbiy Sibirga surgun qilingan. Jazo muddati 1930-yil 3-noyabrdan hisoblangan. Qahramonimiz 1989-yil 20-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

Komilbek Norbekov – 1885-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Eski maktabda o'qigan. Keyinchalik o'z hisobidan jadid maktabini ochgan. Inqilobgacha "Jamiyati xayriya"ning faol a'zosi edi. 1918-yilgacha savdo bilan mashg'ul bo'lgan. 1921-yildan 1930-yil martgacha Respublika xalq maorifi komissarligi kitob do'konda mudirlik qilgan. Komilbek Norbekov Sovet hokimiyatini og'darish va "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining faoliyatida ishtirok etganlikda ayblanib, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 67-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

U uch yil muddatga G'arbiy Sibirga surgun qilingan. Qamoq jazosini Novosibirskda o'tagan. 1933-yili ukasi Karimbek Norbekov bilan birgalikda surgundan qochgan va G'arbiy Xitoyga muhojir bo'lib chiqib ketgan. U yerdan 1935-yil boshlarida yashirin tarzda qaytib kelgan. 1935-yil 9-iyunda 2 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Shartli ravishda shoshilinch qamoqdan ozod qilingan.

Sovet ma'murlari qahramonimizni doimiy xavf sifatida ko'rishgan. Shu bois, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi"ning 1938-yil 22-sentyabrda qarori bilan Komilbek Norbekov yana 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati o'sha kundan hisoblangan. Keyinchalik 1990-yil 19-fevralda reabilitatsiya qilingan.

Karimbek Norbekov – 1888-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Eski usuldagi maktabda o'qigan. Inqilobgacha qadar savdogarlik qilgan. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin "Ulamo jamiyati", "Sho'royi islom" a'zosi, 1917-yil oktyabrdan madaniy-ma'riy soha bo'yicha idora xizmatchi, 1918-yildan "Milliy ittihad" tashkilotining faol a'zosi bo'lgan.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi"ning 1938-yil 22-sentyabrda qarori bilan Karimbek Norbekov 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati o'sha kundan hisoblangan. 1990-yili 19-fevralda reabilitatsiya qilingan.

Boymirza Aliyev – 1907-yili Qirg'izistonning Melki qishlog'ida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1928-yildan partiya a'zosi bo'lgan. Pastdarg'om tuman partiya qo'mitasining 3-kotibi vazifasida ishlagan. 1938-yil 9-yanvarda millatchi, aksilinqilobiy tashkilotga mansubligi sababli partiyadan chiqarilgan. Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlari tomonidan hibsga olingan. 1938-yil 11-yanvarda tergov qilingan. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58-, 64- va 67-moddalari bo'yicha ayblanib, otuvga hukm etilgan. Hukm 1938-yil 15-sentyabrda bajariladi. Qahramonimiz 1974-yil 29-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

JADIDLIK HARAKATI TAMSILCHISI

Qurbon Saidning "Ali va Nino" romanining tadqiq etilishi va unga milliy adabiyot tarixidan o'rin berilishi tadqiqotning ilmiy yangiligini ochiq anglatib turibdi.

Ma'lumki, XX asr boshlari milliy adabiyotlardagi taraqqiyot turkchilik, islomchilik va modernlashuv o'z-an-larida kechgan. Muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan turkchilik asr boshlarida M.A.Yurdiqul, A.Husaynzoda, A.Og'ao'g'li, Y.Oqjo'ra kabi ijodkorlarning adabiy faoliyatida ochiq ko'rinadi. Bu muammo Badirxon Ahmadli ilmiy faoliyatining alohida qismini tashkil etadi. Olimning "Turkchilikning nazariy va tarixiy aspektlari" (2019) monografiyasida 150 yildan ortiq davr mobaynida turkiy milliy adabiyotlar o'tgan yo'l ochiqdigan. Monografiyada bu uchlikning muayyan taraqqiyot yo'li, istiqtomat faoliyati va davomyiligiga ega ekanligi adabiy asarlar misolida ko'rsatib berilgan. Milliy adabiyotda turkchilik o'rni va vaqti bilan Hasanbey Zardobiy, Ismoilbek G'asprali, Z.Ko'kalp, M.Rasulzoda va boshqalar ijodida taraqqiy etgani ilmiy ishda aniq ifodasini topgan.

Professor Badirxon Ahmadli Ozarbayjon-Osiyo adabiy aloqalar bo'limining mudiri o'laroq Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida keng ko'lamda Osiyo xalqlari adabiyoti tadqiqoti ishlariga rahbarlik qilmoqda. Ma'lumki,

sobiq ittifoq davrida ham, postsovet zamonlaridan ham Osiyo xalqlari adabiyoti Yevropa va Amerika adabiyoti darajasida tadqiq etilmagan. Holbuki, zamonaviy Osiyo adabiyotini tanish, uning yangiliklaridan bahramand bo'lish barcha milliy adabiyotlarni yangi g'oya, muammo va badiiyat bilan boyitishi tabiiy. Yaponiya, Koreya, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Malayziya, Indoneziya adabiyotlaridagi yangiliklarni tadqiq etish orqali milliy adabiyotning boyishi va rang-baranglashuviga sabab bo'layotgan omillar izlanishi va ularning ozarbayjon adabiyoti bilan mushtarak rishtalarini aniqlash, adabiy aloqalar samaradorligini o'rganish ushbu bo'lim amalga oshirayotgan izchil faoliyatdan darak beradi. Bu yo'nalishda professor Badirxon Ahmadli "Rabindranat Tagor: Yangi Hindiston manifesti" (2021) monografiyasida hind xalqining benazir adibi ijodiy faoliyatini tahlil etibgina qolmay, uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta'siri xususida ham so'z yuritgan. Shuningdek, olim tadqiqotlaridan afg'on adibi Xolid Husayniy, yapon adibi Xaruki Murakami, pokistonlik Muhammad Iqbol, koreyalik ijodkor Kim Jiha va boshqa osiyolik yozuvchilar ijodiy faoliyati ham muhim o'rin olgan. Osiyo xalqlari adabiyotiga bag'ishlangan ikki xalqaro konferensiya tashkil etib, uning materiallarini "Osiyo adabiyoti tadqiqotlari" (2024) nomli

kitob holida nashr ettirgani bu boradagi izlanishlarning amaliy samarasidir.

Professor Badirxon Ahmadli umrining 25 yildan ortiq davrini muallimlikka bag'ishlab, Boku Slavyan universiteti, Hazar universiteti va boshqa ilm dargohlarida o'qigan ma'ruzalari asosida uch jildlik "XX asr Ozarbayjon adabiyoti" darslik-monografiyasini e'lon qildi. Bu fundamental tadqiqotda XX asr adabiyotining inkishof yo'li, adabiy hodisalari va shaxsiyatlar yangi nazariy prizmadan o'tkazilgan. Shuningdek, u ushbu yo'nalishda dastur va qo'llanmalar yaratib, yangi ozarbayjon adabiyotining joriylanishiga muhim hissa qo'shdi. O'zbekistonda o'tkazilgan ilmiy anjumanlar: O'zbekiston Milliy universitetida, Farg'ona va Navoiy davlat universitetlarida, shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023, 2024-yillarda tashkil etilgan O'zbekiston jadidlik harakatiga bag'ishlangan simpoziumlarda hamda o'nlab xalqaro ilmiy anjumanlarda umumturk adabiyotida jadidlik – yangilanish to'liqlarin haqida ilmiy ma'ruzalar qilgan.

E'lon qilgan maqolalari orqali ozarbayjon yangi adabiyotining xususiyatlarini targ'ib etgan bo'lsa, ozar matbuotida "O'zbekistonda zamonaviy jadidlik ilmiy harakati" ("E'debiyat qezeti", 2024-yil 15-may), "O'zbek adabiyotshunosligining patriarxi" ("525-qazet",

2024-yil 7-iyun) maqolalari orqali o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining Ozarbayjonda tanilishiga hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, olimning "Sirojiddin Sayyid poetik dunyosi" maqolasi o'zbek shoirining turkiy dunyoda e'tibor topishida muayyan hissa bo'ldi. Professor Badirxon Ahmadlining o'zbek adabiyoti va ma'naviyatini targ'ib va tadqiq etishdagi xizmati yuksak baholanib, O'zbekistonda "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Professor Badirxon Ahmadlining Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, qozoq, qirg'iz, turkman adabiyotiga doir o'nlab maqolalari borki, ular asosida olimning ilmiy diapozoni kengligi, turkiy xalqlar adabiyoti ravnaqiga samarali ta'sir ko'rsatayotganini payqash mumkin. Shu ma'noda, Badirxon Ahmadli nafaqat o'zbek adabiyotining, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotining ham do'stidir. Turkiston va Ozarbayjon yangi adabiyotining tamsilchisi bo'lgan professor Badirxon Ahmadlini tavalludining 70 yilligi bilan butun o'zbek olimlari nomidan samimiy tabriklaymiz.

Hamidulla BOLTABOYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Yashar QOSIMBEYLI,
filologiya fanlari doktori,
professor



SUD ZALIDAN

"HOJATBAROR"

Firibgarlik, tovlamachilik jinoyati joy ham, vaqt ham tanlamas ekan. Sababi, bu yo'lni tutganlarning nafsi yo'ldami-cho'ldami hakalak otib ketaverar, uning yo'rig'iga tushgan kimsalar harom bo'lsa-da, osongina daromadga ega bo'lishga intilaverar ekan. Eng yomoni, ular o'zlarining bunday chirkın maqsadiga erishish uchun hatto og'ir bemorlarni zor qaqshatishdan ham tap tortmaydi...

Jinoyat ishlari bo'yicha Angren shahar sudida ana shunday nusxalarning qilinishlari fosh etildi. Sud zalida o'tirganlardan kimdir farzandi og'ir xastalikka chalingan onaning firibgarlar tuzog'iga tushganiga achingan bo'lsa, yana kimdir hayratdan yoqasini ushladi. Qalloblar bir-biriga begona emas: aka-uka Bahodir va Bahrom, ularning tumandoshi Dilshod...

Bahrom telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Ehson" kanaliga ulandi-yu, fikri o'zgardi-qoldi. Bu kanalda asosan yordamga muhtojlar (o'zini muhtoj ko'rsatuvchilar ham) hojatbarorlardan ma'lum miqdorda moddiy yordam so'rashar va mabodo kimdir saxovat qilmoqchi bo'lsa, pul ko'chirishi uchun plastik karta raqamlarini e'lon qilishar edi.

"Qizim og'ir dardga chalingan, xorijiy klinikada jarrohlik amaliyoti o'tkazishimizga yordam bering! Aks holda, 20 yoshli dilbandimdan ayrilib qolaman". Iltimosnomaning ostiga plastik karta va uyali aloqa raqamlari qoldirilgan. Roksana ismli ayolning ushbu iltimosi Bahromni sergak tortirdi. U xayoliga kelgan shum fikrini amalga oshirish uchun darhol ayolga xabar yubordi:

– Opajon, dilbandingiz operatsiyasi uchun qancha mablag' yetishmayapti, qo'limdan kelsa, hammasini to'lashga harakat qilaman...

Tabiiyki, bunday "mehribonlik"dan Roksana-ni quvonchi ichiga sig'madi va darhol javob berdi:

– 30 million!

– Ha, yaxshi, qolgani tayyormi axir, aytgan summangizni to'lasam, uni asrab qolishga ulgurasizmi?

– Albatta, 20 million so'm yig'ildi, siz kabi yaxshi odamlar ko'p ekan, ukajon...



“

Har tong uyqudan turib fikrla:

Bugun mening omadim keldi – men uyg'ondim. Men hayotman, menda mana bu behayo, inson hayoti bor va men uni behuda sarflamayman.

Dalay LAMA

”

"MURUVVAT" ORTIDAGI



– Xo'p, opajon, men sizga qisqa muddatda xabar beraman.

Bahrom juvon bergan ma'lumotlardan nusxa olib, avval akasi Bahodirning telegramdagi raqamiga yubordi. Bu vaqtda Bahodir Dilshod bilan birga Qashqadaryo viloyatidagi mehmonxonada suhbatlashib o'tirgan edi. Ukasidan kelgan "mujda"ni o'qib, uning maqsadini darhol tushundi.

– Sizga ma'lumotlarni yubordim, 20 millionlik daromadni boy bermang, o'zgalar ilib ketmasin, – dedi ukasi unga qo'ng'iroq qilib.

Rus tilini yaxshi biladigan Bahodir Roksana-ni shaharlarda so'zlashuv tarmog'i orqali qo'ng'iroq qildi:

– Biz sizga yordam bermoqchimiz, operatsiyaga kerak bo'lgan hamma pullarni o'tkazib yuboraman hozir, faqat buning uchun menga plastik kartangizga ulangan klik parolini ham aytishingiz kerak, bo'lmasa bunday katta summa o'tmaydi.

Hojati ravon bo'layotganidan umidvor Roksana "hojatbaror"ning aytganini qildi, so'ng uzundan uzun rahmat aytdi.

– Ikki kunda hisobingizga pul o'tkazaman, qizingiz tuzalib ketgin, – deya xayrlashdi Bahodir klik raqamini olgach...

Bahodir va Dilshod betoqat tong ottirgach, Shahrisabz shahridagi "Kesh" dehqon bozoridagi bankomatga borishdi. Ulardan oldin bir o'taxon kelib, plastigidagi pulni bankomatda naqdlashtirib, ketishga chog'langan ediki, Bahodir:

– O'taxon, sizdan bir iltimosim bor, – deb murojaat qildi.

– Qo'limdan kelsa bajonidil, bolam, – deya ko'rinishidan boshqa viloyatlik ekani bilinib turgan yigitga razm soldi o'taxon.

– Biz mol olgani vodiyan keluvdik. Pulimiz kamlik qilyapti. Kerakli pulni taksida kelishini kutsak, vaqt yo'qotamiz. Agar bizga plastik kartangizni berib tursangiz, tanishlarimiz hoziroq pul tashlaydi, biz uni naqdlashtirib olib, sizga qaytarib beramiz.

– Mayli, bo'tam, musofir ekansiz, mana, oling.

Ustomonlar pul o'tkazish xizmati orqali birpasda Roksana-ni plastik kartasidagi mablag'ni qo'llaridagi kartaga o'tkazib, naqdlashtirib olishdi. Bo'shagan plastik kartani o'taxonga qaytarishdi. Yarim soatda yaxshigina sarmoyali bo'lgan ikki firibgar do'ppisini osmonga otganicha tezda uylariga – Andijonga jo'nashdi. Tabiiyki, pul uch hamtovoq o'rta-sida teng taqsimlandi...

NOXUSH XABARLAR

Endi gapni Roksana-ni eshiting. U notanish "hojatbaror"ga shaxsiy klik parolini aytgach, kechasi bilan ko'ngli g'ash tortdi. Hisobidagi pulni ukasining plastik karta raqamiga ko'chirib berishni so'rash uchun Angren shahridagi tegishli bankka yo'l oldi. Ammo u moliya muassasasi ostonasiga yetar-yetmas, telefoniga ketma-ket xabarlar kela boshladi. Ma'lumotlar uning hisobidagi pullar yechib olinganidan darak berardi...

Shundoq ham jigargo'shasining dardida kuyib ado bo'layozgan ana o'z hushidan ayrilishiga bir baxya qoldi. Bank xodimlari o'z vaqtida unga birinchi yordam ko'rsatishdi. So'ng Roksana-ni murojaati bilan uning plastik kartochkasidan yechilgan pullarning ro'yxatini taqdim etishdi. Unda ayolning mablag'lari qayerdan, qay usulda o'zlashtirilgani haqida barcha ma'lumotlar mujassam edi.

Voqea yuzasidan Roksana-ni qaynukasi darhol yuzasidan ichki ishlar bo'limiga ariza bilan murojaat etdi. Tezkor surishtiruv ishlari natijasida barcha jinoyatlar fosh bo'ldi. Jinoyat izlarini berkitish va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarini chalg'itish maqsadida Bahodirning o'z uyali aloqa telefoni turib, shaharlarda so'zlashuv xizmatidan Roksana-ni qo'ng'iroq qilgani, o'zining bo'la turib, notanish insonning plastik kartasiga pulni o'tkazib olib, so'ng uni naqdlashtirgani, hamma-hammasi isbotini topdi.

JINOYAT JAZOSIZ QOLMAYDI

Sud sudlanuvchi Dilshod Rustamov va Bahrom Ziyodullayevning (Bahodir Ziyodullayev xoriga ketib qolgani uchun unga nisbatan jinoyat ishi alohida ish yurituviga ajratilgan) aybi dalillar bilan o'z tasdiqini to'liq topgan deb hisoblandi. Dilshod Rustamovga 5 yil muddatga, Bahrom Ziyodullayevga 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Zararni qoplash maqsadida tergov boshqarmasining depozit hisob raqamiga topshirilgan 20 million 300 ming so'm pul jabrlanuvchiga qaytarib berilishi ham sud hukmidagi qayd etildi.

Har doimgidek, tafsilotlardan asosiy maqsadimiz jinoyatchilarning qiyofasini tanishtirishgina emas, yurtdoshlarimizni firibgarlik qurboni bo'lib qolishdan ogoh etish hamdir. Xullas, o'zingizga hushyor bo'ling...

Nurxon ELMIRZAYEVA, jurnalist

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Xayrli ishni Vatanimizdan boshlaylik

Ijtimoiy tarmoqlarda "Madina shahrida xurmo ekib, savob oling" mazmunidagi pul evaziga biror bir shaxs nomidan ko'chat ekish va'da qilinayotgan videolar aylanmoqda. Ayrim fuqarolarimiz tomonidan pul o'tkazilgani va ularning nomidan xurmo ko'chatlari ekilayotgani ham tasvirlangan.



Islom dinida ham "Yaxshilikni avval yaqinlaringga qil" degan gap bor. Endi savol tug'iladi, nima uchun o'z mablag'imizni o'zga yurtning obod bo'lishi, begona odamlarning qulay sharoitida yashashiga sarflashimiz kerak?

Daraxt ekish ezgu amal, bunga hech bir e'tiroz yo'q. Ammo shu ishni vatanimizda, ota-onamiz, yaqinlarimiz, qolaversa, kelajak avlodlarimizga nafi tegadigan joyda qilish to'g'ri emasmi?! Eng yomoni, bunday paytda firibgarlar ham "otini qamchilaydi". Madinada daraxt ekish bahonasida yig'ilgan pullar firibgarlar qo'lida yo'q bo'lib ketish ehtimoli ham katta.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Har yili yurtni obod qilish, cho'llanishga qarshi kurashish maqsadida 200 millionlab ko'chat ekilmoqda. Ammo fuqarolarimizning faolligi, jonkuyarligi bo'lmas ekan, bu maqsadga erishish oson kechmaydi.

Bu Vatani hammamizniki. Shunday ekan, xayrli va savobli ishlarimizni o'z yurtimizda qilaylik. Zero, ertaga bu yerda siz-u bizning farzandlarimiz, kelajak avlodlarimiz yashaydi.

Abdushukur HAMZAYEV
Facebook

TILBILIM

Sovet davrida Ittifoq bo'yicha yagona pul birligi – rubl bo'lgan bo'lsa-da, har bir respublikada u milliy nom bilan atalardi, deylik, ukraincha – karbovanes, ozarbayjon, turkman, no'g'ay tillarida – manat va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'sha davrda "rubl"dan keyin eng keng tarqalgan nom – "so'm" bo'lib, sovet pulini o'zbek va tojiklar – so'm; qozoq, qirg'iz, qoraqalpoqlar – som; tatar, chuvashlar – sum; boshqirdlar – hum atashar, shuningdek, qorachoy-balqar, kabardin-cherkas, chechen-ingush va osetinlar uchun ham pul – "som" edi. Agar mazkur hududlarni shartli SO'M HUDUDI deb atasak, yaqin o'tmishda "so'm"ning qamrovi qanchalik keng bo'lganligini tasavvur etish mumkin.

Ammo mustaqillikdan keyin "so'm"ga faqat O'zbekiston va Qirg'iziston sodiq qolishdi, Qozog'iston pul birligini – "tenge", Tojikiston – "somoniy" deb o'zgartirdi.

Aslida, qog'oz yoki tanga pulga nisbatan "so'm" deyilishi sovet davridan emas, balki undan oldin boshlangan, Chor Rossiyasida qog'oz rubl 1897-yildan joriy etilgan bo'lsa, o'sha paytda ham mintaqamizda pulga nisbatan "so'm" deyilganligini O'zbekning "Qutlug' qon" romanidagi Mirzakarimboyning Yo'lichiga aytgan ushbu so'zlaridan ham anglash mumkin: "Jiyan, aqling bo'lsa, kishining bir tiyinig xiyonat qilma. Tiyin ham pul, yuz ming so'm ham pul".

Endi "so'm" so'zining etimologiyasiga kelsak, uning asl turkiy so'z ekanligini deyarli barcha turk bilim mutaxassislari, jumladan, G.Dyorfer, M.Resenen kabi yirik olimlar ham e'tirof etgan. "So'm" so'zi ilgari shimoliy turkiy lahjalar, xususan qipchoq shevalarida: "yaxlit", "quyma", "yombi", "sof" kabi lug'aviy ma'nolarga ega bo'lib, ko'proq oltin, kumush, temir kabi ma'danlarga nisbatan, deylik, "so'm temir" ("quyma temir"), "so'm oltin" ("oltin yombisi"), "so'm kumush" ("kumush yombisi")



qabilida ishlatilgan. Ayni paytda, bu so'zning pul emas, "yaxlit, sof" ma'nosi tilimizda birgina "so'm go'sht" birikmasida saqlanib qolgan va bu ibora lug'atda shunday izohlangan: "so'm go'sht – suyaksiz va yog'siz yumshoq et, lahm go'sht". Koshg'ariy bobomiz ham "Devonu lug'otit-turk"da o'g'uzcha "so'm" – "juda" ma'nosini bildirishini aytadi va ushbu misolni keltiradi: "so'm so'cho'k nāh – juda chuchuk narsa, chup-chuchuk narsa" (Ushbu misolda "so'm" – "qup-quruq", "sap-sariq" kabi grammatik shakllardagi kuchaytirish qo'shimchasiga ham o'xshaydi, ammo Koshg'ariy "Devon"da uni alohida so'z sifatida keltirgan.

Xo'sh, "so'm" so'zi qachondan boshlab pul birligi ma'nosida ishlatila boshladi? XIII-XIV asrlarda Jo'ji Ulusi, ya'ni Oltin O'rdada "dang", "pul", "so'm" kabi pul birliklari bo'lib, "dang" (keyinchalik "tanga", "tenge", "tiyin") deganda – kumush tangalar, "pul" deganda esa – mis tangalar tushunilgan. "Dang" yoki "tanga" keyinchalik "denga" shaklida rus tiliga ham o'zlashgan, ya'ni hozirgi rus tilidagi "pul" ma'nosidagi "dengi" so'zining kelib chiqishi shunday. "So'm" esa "tanga" yoki "pul"ga nisbatan kattaroq qiymatga ega bo'lib, yuqorida aytilganidek, "so'm kumush", ya'ni g'isht shaklida quyilgan kumush yombiga nisbatan "so'm" deyilgan.

Tanga va so'mlar Oltin O'rdaning Saroy va boshqa shaharlarida, shuningdek, Xorazmda ham zarb etilgan. "So'm"

haqida XIV asrda yashagan va o'sha davrdagi Markaziy Osiyo va Oltin O'rda hududlaridagi savdo yo'llari borasida yozib qoldirgan florensyalik tijoratchi va siyosatchi Franchesko Pegolotti (1290–1349) ma'lumotlari diqqatga sazovor, u o'zining "Tijorat tajribalari" asarida Markaziy Osiyo hududlariga keluvchi ovro'palik tijoratчилarga Ovro'padan mato-gazlamalar olib kelib, ularni Urganch shahrida sotish va u yerdan so'mlar, ya'ni kumush yoki oltin yombilarini g'amlab olib tatarlar yashaydigan hududlarga, ya'ni Oltin O'rdaga borishni maslahat beradi.

Shuni ham aytish kerakki, Oltin O'rda inqirozidan keyin rus knyazliklari, xususan Moskva davlatida ruscha "grivna" bilan birga "pul", "denga", "altin" kabi Oltin O'rdadan o'zlashtirilgan atamalar, pul birliklari ham ishlatilgan. Kiyev Rusi davridan mavjud bo'lgan "grivna" ham kumush yombisi bo'lib, uning to'rtidan bir qismiga nisbatan "rubl" deyilgan. Ruscha "rubit", ya'ni "chopmoq" fe'lidan yasalgan "rubl" – pul birligi sifatida keyinroq muomalaga kelgan bo'lsa, "so'm" atamasi "rubl"dan qadimiyroqdir.

Alqissa, yuqorida biz "so'm hududi" degan iborani tilga oldik, mabodo kelajakda Markaziy Osiyoda ham xuddi Ovro'pa Ittifoqiday siyosiy yoki iqtisodiy ittifoqlar paydo bo'lib, yevro kabi umumiy pul birligiga ehtiyoj tug'lsa, bunga sof turkiy etimologiyaga ega "so'm"dan yaxshiroq nomzod yo'q.

Abdullohid HAYIT

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir: Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi...

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 20667

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 050

Lotin yozuvida – 12 617

Media kuzatuvchilar – 42 388

Buyurtma: G – 440.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirilish vaqti: 21:00

Bosishga topshirilishi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz